

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**IJTIMOIV FANLAR FAKULTETI  
MILLIV G`OYA VA MA'NAVIVAT ASOSLARI KAFEDRASI**

**“Himoyaga tavsiya etilsin”**

Ijtimoiy fanlar fakulteti dekani

\_\_\_\_\_ B.Eshov

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2019-yil

**URAKOVA SITORA BOTIR QIZI INING**

5111600-Milliy g`oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo`nalishi  
bo`yicha bakalavr darajasini olish uchun

**“ATROF-TABIIY MUHITNI XALQARO MUHOFAZA QILISHNING  
HUQUQIVY ASOSLARI” mavzusida yozgan**

**BITIRUV MALAKAVIVY ISHI**

Talaba \_\_\_\_\_ **Urakova Sitora Botir qizi**

Ilmiy rahbar \_\_\_\_\_ **dots.X.Maxmanova**

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2019-yil

**“Himoyaga tavsiya etildi”**

Milliy g`oya va ma'naviyat asoslari

kafedrasi mudiri \_\_\_\_\_ **dots. F.Qanoatova**

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2019-yil

**Qarshi – 2019**

## MUNDARIJA

**Kirish**.....3

### **I-BOB. Atrof tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilshning asosiy tamoyillari va manbalari**

1.2. Atrof tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilshning asosiy tamoyillari.

1.2. Atrof tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilish manbalari.

1.3.O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ekologik munosabatlarni tartibga soluvchi manba

### **2-BOB. Atrof tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilishda xalqaro ekologik tashkilotlarning vazifalari va xalqaro ekalogik huquqiy javobgarlik**

2.1. Xalqaro ekologik tashkilotlar, konferentsiyalar va jamg`armalar.

2.2. Xalqaro ekologik-huquqiy javobgarlik.

**XULOSA**.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekistonda milliy ekologik qonunchilikni rivojlantirish bilan bir qatorda atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi xalqaro va davlatlararo shartnomalar, bitimlarga qo'shilish, ularni imzolash borasida tizimli hamda izchil ishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish borasida qator xalqaro bitimlar va konventsiyalar imzolangan. Mazkur bitim va konventsiyalar bo'yicha olingan majburiyatlarni amalga oshirishda yirik ekologik loyihalar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi BMTning Taraqqiyot dasturi, Osiyo taraqqiyot banki, Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologik markazining mamlakatimizdagi filiali, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyatining (GIZ) O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda hamda hamda rivojlangan demokratik davlatlarning qonunchiliklari chuqur tahlil etilgan holda ulardagi ilg'or normalar hamda xalqaro shartnomalar, konventsiyalarda belgilangan qoida va normalar milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilinmoqda.

Konstitutsiyaning fundamental normalariga asoslangan holda ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solish jarayoni hozirgi vaqtda atrof muhitni muhofaza qilishning turli jihatlarini hisobga oluvchi xususiyatlari bo'yicha klassifikatsiyalash imkonini beradi. Tabiatdan foydalanishda ekologik va uning bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning bosqichma-bosqich va izchil hal etilishi izchillik xarakteriga ega bo'ldi.

Shu bilan birga, ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solish nafaqat O'zbekistonning barqaror rivojlanishga o'tishiga bog'liq holda atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha istiqbolli vazifalarni hal etishga, balki mavjud ustuvor ekologik muammolarni, shu jumladan aholi salomatligini muhofaza qilish bilan bog'liq muammolarni ham hal etishga qaratilgan. Masalan, mamlakat ayrim hududlarining ekologik barqarorligi avvalo, boy tabiiy imkoniyatlardan oqilona foydalanish hisobiga ta'minlangan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida "ekologik xavfsizlik, birinchi

navbatda, suv va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish doimo e'tiborimiz markazida turishi zarur<sup>1</sup>ligini ta'kidlab, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Orolbo`yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo`yicha ko`p tomonlama sheriklik asosida trust fondining katta yutug`i bo`lganligini alohida e'tirof etdilar. Hozirgi vaqtda Orol fojeasi tufayli 5.5 million gektardan ortiq maydonda Orolqo`m sahrosi paydo bo`ldi. Har yili 100 million tonna qum va tuz havoga ko`tarilmoqda. Bu esa Orol halokati global muammo ekanini yana bir bor isbotlamoqda.

BMTning Orolbo`yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo`yicha ko`p tomonlama sheriklik asosida "Trust fondi"ning tuzilishi, o`zbek diplomatiyasining katta yutug`i bo`ldi. Biz orol dengizining suvsiz qolgan hududida yashil o`rmonlar barpo etishga alohida e'tibor berilmoqda.

Hozirgi kunda O`zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning teng huquqli sub'ekti sifatida mamlakat ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida atrof muhit va aholi salomatligini muhofaza qilishga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik siyosatni izchil amalga oshirib kelmoqda.

Ayniqsa, ekologik vaziyatning dunyo miqyosda globallashib ketishi, halqaro munosabat sohalarda konfrontatsiya kuchayib, inson tafakkuri va geopolitik ta'sir uchun g`oyaviy-mafkuraviy kurash keskinlashib ketayotgan bir paytda ushbu mavzu dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Buni barcha davlatlarning rahbarlari hamda mutaxassisleri ochiq-oydin e'tirof etmoqdalar. Zero, O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Barchamiz bir oddiy haqiqatni qat'iy va aniq anglab olishimiz kerak. Bundan buyon O`zbekiston ekologik harakati yangi sifat bosqichiga ko`tariladi, yuksak deputatlik minbaridan turib atrof-muhitni muhofaza qilish masalalarini o`rtaga qo`yish va nazorat qilish, insonni va mamlakat aholisini

---

<sup>1</sup> Sh.Mirziyoev. 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi.28.12.2018. <https://www.president.uz>

ekologiyaning xavfli hamda tajovuzkor o`zgarishlaridan himoya qilish uchun ulkan imkoniyatlarni qo`lga kiritadi»<sup>1</sup>.

**Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari.** Atrof tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilishni funktsional tahlil qilish orqali, barqaror ekologik vaziyatni shakllantirishning ahamiyatini nazariy asoslab berishga qaratilgan.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Ushbu maqsadni amalga oshirish quyidagi vazifalarning bajarilishini taqozo etdi:

- Atrof tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilishning asosiy tamoyillarini aniqlash va o`rganish;
- Atrof tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilish manbalarini o`rganish;
- Xalqaro ekologik tashkilotlar, konferentsiyalar va jamg`armalarining asosiy funktsiyalari, ularning jamiyat hayotida tutgan mavqei va ahamiyatini tadqiq etish;
- Xalqaro ekologik-huquqiy javobgarlikni aniqlashtirish va milliy ekologik havfsizlikni ta'minlashda Xalqaro ekologik-huquqiy javobgarlikni tizimining ta'sirini o`rganish.

**Bitiruv malakaviy ishining o`rganilganlik darajasi.** O`rganilayotgan mavzu bo`yicha Respublikamizda mustaqillik yillarida ancha katta hajmdagi tadqiqotlar ijtimoiy-siyosiy fanlar tarkibida amalga oshirilganligini kuzatish mumkindir. Ilmiy manbalarni tahlil qilish shundan dalolat beradiki, ekologik faoliyatini boshqarishning yo`nalishlari va xususiyatlarini o`rganish asosiy muammo bo`lib qolmoqda. Atrof tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilish Kalonov B.X., Xolmo`minov J., Mirzaev T.R., Ro`ziev R., G`ulomov M.U., Jo`raev O.Yu., Fayziev Sh.X., Qobilov Sh.R., Najimov M., N.B.Shoimovlarning ilmiy tadqiqot ishlarida yoritilgan. Respublikamizda ekologik nazoratning falsafiy jihatlari E.Xoshimova, Yu.Shodimetov, S.Mamashokirov, E.Usmonov, D.Rasulov, T.Quyliyev, A.K.Berdimuradova, S.Sanginov, Sh.L.Maxmudova, V.O.Levinskaya,

---

<sup>1</sup> Karimov I. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining q o`shma majlisidagi ma'ruzasi. –Toshkent «O`zbekiston», 2010. –B.29.

U.Saidova kabi olimlarning doktorlik va nomzodlik ilmiy tadqiqotlari dissertatsiyalari diqqatga sazovordir. Asosan, chet ellik mutaxassislar tomonidan yahshi ishlab chiqilgan. Bu borada P.Doel, E.G.Moll, M.Valetta, M.P.Radjoneri, M.A.Oldak, E.V.Babina, S.N. Solomina kabi olimlarning asarlarini ko`rsatish mumkin. Umuman, yuqorida nomlari qayd etilgan tadqiqotchilar o`z ishlarida Atrof tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilishning maxsus strukturaviy funksional tahlil ob'ekti sifatida tekshirishni o`z oldilariga maqsad qilib qo`ymaganlar.

### **Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi.**

- Atrof tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilishning asosiy tamoyillarini asosiy yo`nalishlari, xususiyatlari tahlil qilindi;
- Rivojlangan demokratik davlatlarning qonunchiliklari chuqur tahlil etilgan holda ulardagi ilg`or normalar hamda xalqaro shartnomalar, konventsiyalarda belgilangan qoida va normalar milliy qonunchiligimizga implementatsiyasi amaliy natijalari o`rganildi.
- Xalqaro ekologik tashkilotlar, konferentsiyalar va jamg`armalarining asosiy funksiyalari, ularning jamiyat hayotida tutgan mavqei va ahamiyatini tadqiq etildi;
- Xalqaro ekologik-huquqiy javobgarlikni aniqlashtirish va milliy ekologik havfsizlikni ta'minlashda Xalqaro ekologik-huquqiy javobgarlikni tizimining ta'sirini o`rganildi;
- mamlakat ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida atrof muhit va aholi salomatligini muhofaza qilishga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik siyosatni amalga oshirishda olib borilayotgan chora va tadbirlarning amaliy natijalari o`rganildi.

**Tadqiqot predmeti va obykti:** Atrof tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilishning asosiy tamoyillari va manbalarini, xalqaro-huquqiy muhofaza qilishda xalqaro ekologik tashkilotlarning vazifalari va funksiyalarini, Xalqaro ekologik-huquqiy javobgarlikni aniqlashtirish va milliy ekologik havfsizlikni ta'minlashda Xalqaro ekologik-huquqiy javobgarlikni tizimining ta'sirini o`rganish tadqiqotning predmetini tashkil qiladi.

Tadqiqotning ob'ekti. Atrof tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilishda davlatlarning hamkorligining ijtimoiy-falsafiy tahlili.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Malakaviy ishning ilmiy va amaliy ahamiyati mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangilanishlar jarayonida O'zbekistonda milliy ekologik qonunchilikni rivojlantirish bilan bir qatorda atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi xalqaro va davlatlararo shartnomalar, bitimlarga qo'shilish va ularning bajarilishi va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni tadqiq qilinishi va amaliy tavsiyalarni bayon qilinishi bilan belgilanadi.

**Ishning aprabatsiyasi.** Bitiruv malakaviy ish Qarshi davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti, Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari kafedrasida ma'ruza qilingan.

**Ishning tuzilishi va tarkibi.** Tadqiqot ishi o'z strukturasi ko'ra kirish, ikki bob, besh paragraf, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iboratdir.

## **I-BOB. Atrof tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilishning asosiy tamoyillari va manbalari**

### **1.1. Atrof tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilishning asosiy tamoyillari.**

O`zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to`g`risida"gi qonunning 4-moddasida aniq qilib ko`rsatilgan ekologik prinsiplardan biri "Tabiatni muhofaza qilish sohasida milliy, mintaqalararo va xalqaro manfaatlarni uyg`unlashtirish"dir, chunki tabiatda sodir bo`ladigan jara-yonlar va holatlar, jamiyatdagidan farqli, na ma'muriy na tabiiy chegarani biladi. Qirg`izistonda Sirdaryo irmoqlarining radioaktiv moddalar bilan ifloslanishi so`zsiz O`zbekiston va Qozog`iston Respublikalarida ekologik xavfsiz muhitga o`zining salbiy ta'sirini o`tkazmay qolmaydi. Chernobil yoki Orol dengizi ekologik fojialari nafaqat Sharqiy Yevropa yoki Markaziy Osiyo, balki butun Yer kurrasidagi insonlarning "yashash huquqi"ning zaruriy elementlaridan biri bo`lgan ekologik xavfsiz muhit holatiga salbiy ta'sir etmoqda. Shuning uchun ham O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov Birlashgan Millatlar Tashkilotining 50-sessiyasidagi ma'ruzasida Orol muammosini xalqaro miqyosda hal qilishni taklif etdi va uning salbiy oqibatlari nafaqat O`zbekiston, balki butun dunyo hamjamiyati uchun tahdid solayotgan dolzarb masala qilib ko`rsatgan edi.

Ekologiya huquqi manbalarining boshqa huquq sohasidagi manbalardan farqi yoki o`ziga xos tomoni - milliy ekologik qonunlarda xalqaro-huquqiy me'yorlarni ko`proq aks etganligidadir.

Atrof tabiiy muhitni xalqaro muhofaza qilish deb insonlarning ekologik xavfsiz muhiti va davlatlarning bir me'yorda rivojlanishini ta'minlovchi xalqaro huquq prinsiplari, normalari va munosabatlari yig`indisiga aytiladi.

Atrof tabiiy muhitni xalqaro miqyosda muhofaza qilish XIX asrning boshlarida yuzaga keldi. Avvaliga bu masala ikki davlat o`rtasidagi tabiiy obyektlardan teng huquqli foydalanish ko`rinishida namoyon bo`lgan. Bunday ekologik munosabatlar ikki davlat o`rtasida tuzilgan umumiy shartnomalar tarkibidan joy olgan. 1913-yil 17-19-noyabrda Shveysariyaning Bern shahrida



bo`lib o`tgan xalqaro konferensiya ekologik muammolarni xalqaro huquqning maxsus masalalari toifasiga ko`tardi.

Shunday bo`lsada insoniyat tarixida ekologik muammolar XX asrning o`rtalarigacha mahalliy yoki milliy masalalar doirasidan o`rin olgan. Bu davrgacha davlat va jamiyat xavfsizligiga yoki ularning bir me'yorda rivojlanishi va inson huquqlariga global ta'sir qiluvchi muammolar turkumiga faqatgina harbiy va siyosiy masalalar kirgan. XX asrning ikkinchi yarmida, ya'ni ikkinchi jahon urushi yakunlanishi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining tuzilishi xalqaro xavfsizlikka tahdid solayotgan masalalar jumlasiga ekologik muammolarni ham kiritdi. Shu asrning 60-70 yillarida "sovuq urush" oqibatida Yer kurrasidagi insonlar hayotiga tajovuz solayotgan uch muammo - yadro to`qnashuvi, yoppasiga tarqaluvchi kasalliklar va uchinchi o`rinda ekologik muammolar qo`yilgan bo`lsa, 90-yillarga kelib ekologik muammo va ularni xal qilish masalasi yetakchi o`rinni egallab oldi.

Rivojlanish va tabiatni muhofaza qilish bo`yicha Butunjahon Komissiyasi (Brundtland) ma'ruzasida "xavfsizlik g`oyasi tubdan o`zgargani, endilikda davlatlarning milliy suverenitetiga xavf solayotgan siyosiy va harbiy masalalar toifasiga mahalliy, milliy, regional va global miqyosda namoyon bo`layotgan ekologik inqiroz hisobiga kengayishi kerak"<sup>1</sup> deb bejiz aytilmagan.

Xalqaro miqyosda ekologik xavfsizlikni ta'minlash - atrof muhit sifatini tirik organizmlar uchun yetarli darajada ushlab turadigan, qayta tiklaydigan va oshirib boradigan xalqaro munosabatlarni shakllantirishni taqazo qiladi. Undan tashqari, ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun albatta butun dunyo mamlakatlari va xalqlarining bir me'yorda rivojlanishi, ekologik siyosat tizimida davlatlarning integratsiyalanishini taqazo qiladi. Bu borada BMT, davlatlararo va nodavlat tashkilotlarining egallagan o`rni va ularning ekologik masalalarini yechimini topishdagi ahamiyati kundan kunga o`sib bormoqda.

XXI asr bo`sag`asida insonlarning ekologik ong va tafakkurida keskin o`zgarishlar davri bo`ldi desak mubolag`a bo`lmaydi. Endilikda ekologik muammo har bir insonning qalbida va uning hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyat

---

<sup>1</sup> Spravochnik ekologo-eksperta. – T.: Goskompriroda, 1997

hisi uyg`ona bormoqda. Lekin bu hissiyot amalda o`z ifodasini topa olmayapti. Odamzodning yagona yashash makoni Yer kurrasi ekanligi, atrof tabiiy muhit esa uning "o`tirgan shoxi" ekanligi, bu shoxni insoniyat o`z faoliyati natijasida sekin astalik bilan arralayotganligini ular tomonidan anglab olinishining o`zi katta ekologik qadamdir. Keyingi qadam esa xalqaro-huquqiy me'yorlarga asoslangan holda ekologik madaniyat va ma'rifatni o`stirish, davlat boshqaruv va na-zorat tizimida ekologik talablarni "birlamchi masalalar" turkumi darajasiga ko`tarishdir.

Insoniyatning ekologik tafakkurining shakllanishiga sababchi bo`lgan "Ekologiya" fanining yuzaga kelishi va bu sohadagi ilmiy izlanishlarning keng qamrovli olib borilish hamda atrof muhit holati bo`yicha ko`pgina ma'lumotlarni oshkora qilinishidir. So`ngi vaqtlar xalqaro "grand" uchrashuvlarida (Rio-de-Janeyro, 1992; Stambul, 1999...) aynan inson huquqlari va uni ta'minlab beruvchi asosiy omillardan biri bo`lgan ekologik xavfsizlik masalasi ularning kun tartibida asosiy joyni olmoqda.

1972-yil BMTning kishilarni o`rab turuvchi atrof muhit muammo-lariga bag`ishlangan maxsus Stokgolm (Shvetsiya) konferensiyasida xalqaro ekologik prinsiplar va harakatlar rejasiga doir Deklaratsiya qabul qilindi. Bu anjumanda BMTning atrof muhit bo`yicha dasturi - YUNEP tashkiloti tuzildi va Bosh Assambleyaning rezolyutsiyasiga binoan uning Markaziy qarorgohi Keniya poytaxti Nayrobi shahri etib tayinlandi. Stokgolm konferensiyasi xalqaro-huquqiy munosabatlarni tartibga solish-ning asosiy ko`rinishlaridan bir -regional ekologik harakatlarga asos soldi.

Hozirgi zamon xalqaro ekologik hamkorlik uch yo`nalishda amalga oshirilmoqda:

1) atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning davlatlararo va millatlararo hamkorlik va ulardagi ijobiy tajribalarni keng targ`ib qilish;

2) ma'lum bir geografik mintaqa (regionda) yoki cheklangan tegralarda tabiatni regional muhofaza qilishning ilmiy asoslangan chora-tadbirlarini ishlab chiqish va ularni amaliy tadbiriq qilish;

3) global ekologik muammolarni yechimini topishda BMTning idoralari, davlat va nodavlat tashkilotlar orqali universal yo`llarni ishlatish.

Umuman olganda, atrof muhit muhofazasi xalqaro miqyosda nafaqat ekologik talablar orqali amalga oshiriladi, balki ular ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy talablarni ham o`z ichiga qamrab olgan holda shakllanadi. Lekin, nazariy jihatdan qaraganda tabiatni muhofaza qilish me'yorlari faqatgina xalqaro ekologik munosabatlarni inobatga olishi kerak. Chunki ekologik muammolar dunyoviy muammolar - inson huquqlari, iqtisodiy, energetik, yadro urushi, oziq-ovqat, ta'lim kabilar muamolar bilan uzviy bog`langandir. Har biri ekologik munosabatlar bilan bevosita yoki bilvosita aloqadorlikda bo`lgani uchun ham mahalliy, regional, global masalalar qatoridagi yagona muammo bo`lib qarab kelinmoqda.

Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, har bir huquq sohasi jamiyatdagi ma'lum bir munosabatlarni tartibga solishda aniq qoida-prinsiplarga yon-doshadi. Milliy qonunchilikni ishlab chiqish va shakllantirishda bu prinsiplar har bir millat yoki davlatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'rifiy-madaniy, milliy an'analariga asoslangan holda belgilansa, xalqaro huquqda esa ikki va undan oshiq millat, xalq yoki davlatlarning umumiy manfaat-larini va eng avvalo inson huquqlariga yondoshgan tarzda belgilanib olinadi.

Xalqaro prinsiplar - xalqaro huquq subyektlari harakatlarining boshqaruv qoidalari. Xalqaro ekologik prinsiplar esa xalqaro hamkorlik ishtirokchilarining, ya'ni subyektlarining, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va xalqaro huquq obyektlaridan foydalanish borasidagi munosabat qoidalari.<sup>1</sup> Bu qoidalar xalqaro huquq me'yorlari zaminida yotishi va o`zaro munosabatlarni huquqiy me'yorlash va mexanizmini ishlab chiqishda yo`nalish beruvchi ko`rsatma tarzida xizmat qilishi kerak.

BMT Nizomining 2-moddasida ko`rsatib o`tilgan va uning hamma a'zolari uchun majburiy hisoblangan xalqaro munosabat prinsiplari xalqaro ekologik prinsiplar zaminida yotadi. Xalqaro ekologik prinsiplar BMTning atrof muhitni

---

<sup>1</sup> Hakimov N.H., Abirqulov Q.N., Rajabov N., Islomov A.A. Atrof muxit muxofazasi. O'quv qo'llanma. T.: 2010., 1566

muhofaza qilish bo'yicha o'tkazilgan Stokgolm (1972) va biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha o'tkazilgan Rio-de-Janeyro (1992) konferensiyalarida, Yevropada xavfsizlikni ta'minlashning yakuniy Xelsin-ki hujjatida (1975) va Umumjahon tabiat Xartiyasida o'z aksini topgan.

Xalqaro ekologik huquqiy prinsiplar qo'yidagilardan iborat:

1. Tabiiy resurslarga davlat suverenitetligi. Bu prinsip BMT Bosh Assambleyasining 1962-yil 14-dekabrda avval "Tabiiy resurslarga nisbatan ajralmas suverenitet" va so'ngra, Stokgolm (1972) konferensiya-sining deklaratsiyalarida o'z ifodasini topgan. Bu prinsipga binoan har bir xalqaro huquq subyekti xalqaro munosabatlarda o'z tabiiy boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishni milliy qonunchilik asosida olib borish huquqiga ega. Bu prinsipga binoan har bir mustaqil davlat tabiiy boyliklarni nafaqat egallash, foydalanish, balki tasarruf qilish huquqidan to'la foydalanish imkoniyati ochib berildi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi - deb ta'kidlagan edi mamlakatimizning birinchi prezidenti I.A.Karimov, o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarrafiyot kafolatlari" degan asarida - avvalam bor juda boy xom ashyo va tabiiy boyliklaridan o'zi bilganicha foydalanish huquqini paydo bo'lishidadir. Bunday foydalanish Chor Rossiya, so'ngra Sobiq Ittifoqi davridagi ekstensiv, ya'ni pala-partish va chala-yarim emas, balki mustaqillik davrida intensiv tarzda, ya'ni yuqori darajada samaradorlik bilan amalga oshirilmoqda. Milliy manfaatlar milliy qonunchilik asosida himoya qilina boshlandi va texnogen buzilgan landshaftlarni qayta tiklash talablarini keng joriy qilish imkonini berdi. Chunki har bir davlatning tabiiy resurslarga bo'lgan suverenitetligi, uning xalqi va fuqarolarining yashash huquqini ta'minlash, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi buyuk ma'suliyat-milliy ekologik xavfsizlikni ta'minlash hissini tadbiiq qilish imkonini berdi. Turkiston o'lkasi, so'ngra O'rta Osiyo respublikalari Chor Rossiyasi yoki Sobiq Ittifoqning mehnat taqsimoti yoki iqtisodiy rivojlanish tizimidagi uzluksiz ta'minot va progressiv o'sish talablarini qondirishda tabiiy xom ashyo va arzon mehnat resurslari o'lkasi

bo'lganligi hech kimga sir emas. Shuning uchun ham bu "chekka o'lka"<sup>1</sup> XXI asr bo'sag'asida ekologik inqirozli hududlar toifasiga kirib qolgan edi.

2.Davlatlar o'z yuridiksiyasidan tashqaridagi atrof muhitga zarar yetkazmaslik. Bu prinsip 60-yillarda oddiy bir xalqaro huquq me'yori sifatida ishlatilgan bo'lsa, 1972 yil Stokgolm konferensiyasida xalqaro ekologik hamkorlikning asosiy qoidalari toifasiga kirgazildi. BMTning Nizomiga binoan har bir davlat yoki xalqaro huquq subyekti o'z hududi yoki nazorat doirasidagi harakatlari o'zga hudud yoki nazorat doirasida turgan davlatlarga zarar yetkazmasligi kerak va bular uchun javobgardir.

Afsuski, ma'lum bir siyosiy yoki iqtisodiy sharoitlarda bu qoida o'z kuchini o'tkaza olmayapti. Bunga misol qilib Tojikiston Respublikasi Tursunzoda shahrida ishlab turgan Alyumin zavodini olsak bo'ladi. Bu zavod qo'shni Tojikiston iqtisodiyotiga katta ulush qo'shayotgan va respublika uchun valuta tushumini ta'minlovchi yagona korxonada desak mubo-lag'a bo'lmaydi. Lekin uning faoliyati qo'shni O'zbekistonning ekologik xavfsizligiga salbiy ta'siri 40 ziyod turdagi ifloslantiruvchi moddalarning tarqalishida ifodalanmoqda. Surxandaryo viloyatining shimoliy tumanlarida birgina ftoir birikmalarining atmosfera havosi va tuproqlarda to'pla-ganlik darajasi sanitar normalardan 7,2 barobarga ko'pdir.

3.Insonlarning ekologik huquqining afzalligi. Bu prinsip bevosita inson huquqlaridan biridir. Chunki Yer yuzidagi barcha insonlar, ularning irqiy, milliy, diniy, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, yashash huquqiga egadirlar. Yashash huquqi esa inson huquqlarining birlamchi omilidir. BMT Nizomining 3-xat boshi 1-moddasiga binoan xalqaro hamkorlikni davlatlar "inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilishlari va ularni rag'barlantirishni rivojlantirishlari" asosida olib borishlari kerak<sup>2</sup>.

4.Hamma bosqichda ekologik nazoratlash prinsipi yuqorida sanab o'tilgan xalqaro-huquqiy qoidalarni amaliy tadbig'ini kuzatib borish va kafillovchi institutlar tizimini yaratishni talab qiladi. Agarda xalqaro ekologik hamkorlik

---

<sup>1</sup> I. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.- T.: «O'zbekiston», 1997, 112-b.

<sup>2</sup> Международное право в документах. -М.:Юриздат, 1982.

me'yorlarini amaliy tadbiri uning qatnashchilari yoki uchinchi bir vakolatli idoralar tomonidan nazorat qilinmasa, har qanday xalqaro hujjat deklarativ ko'rinishda bo'ladi va ular qog'ozda qolib ketadi. Bunday xalqaro nazorat institutini universal tarzda BMTning EKOSOS, YUNEP, YUNESKO, TMXI, JSST, XDK hamda MAGATE kabi umumiy yoki maxsus masalalar bo'yicha tuzilgan tashkilotlar yoki regional tarzdagi - OBSE, ADA, ABT, ADT, ASEAN kabi tashkilotlar olib borishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, Markaziy Osiyo mintaqasida maxsus vakolatli davlatlararo ekologik tashkilotni tuzish (masalan, "Turkiston bizning uyimiz", "Turk eko nazorat", "Turkistonda ekologik xavfsizlik") va uning qoshida qatnashuvchi davlatlardan nazorat, tergov va sud organlarini barpo etish zamon talabidir.

5. Ekologik axborot almashuvni erkinligi prinsipi xalqaro hamkorlik qatnashchilaridan o'z milliy chegaralarida yuz berayotgan atrof tabiiy muhitning salbiy o'zgarishlari haqida vaqtda axborot berib borishni nazarda tutadi. Chunki ekologik jarayonlar ma'muriy chegarani "tan olmaydi" va ular qo'shni mamlakatning ekologik xavfsizlik darajasiga salbiy ta'sir etishi mumkinligini e'tirof etadi. O'z paytida va tezkor olingan axborot ekologik xavfni oldini olish va uni birgalikda yoki xalqaro hamjamiyat yordamida bartaraf qilish imkonini beradi.

6. O'zaro ekologik konsultatsiyalash prinsipi bundan oldini axborotlash prinsipini davomi desak bo'ladi. Konsultatsiyalash yoki maslahatlash prinsipi-yuzaga kelgan ekologik inqiroz holatini keng yoyilishini oldini olish va uni bartaraf qilishning xalqaro strategik maqsad va taktik vazifalarini aniqlab olish, unga qarshi kurashishning chora-tadbirlar qo'lami va yo'llarini aniqlashtirishga imkon beradi.

7. Ekologik inqirozli holatda davlatlarning o'zaro yordam ko'rsatish prinsipi davlatlarning o'zaro gumanitar yordam ko'rsatish va oqibatda o'z milliy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan harakatlar toifasiga kiradi. Markaziy Osiyoda vujudga kelgan "Orol muammosi"ni xal qilishda 100dan ziyod davlat yoki nodavlat tashkilotlarning ishtirok etishi va keyingi 10 yil mobaynida ularning yuz

millionlab AQSH dollari miqdorida bizlarga moddiy yordam ko`rsatishlari bunday olijanob prinsipni amalda qo`llanilayotganiga aniq bir misol bo`la oladi.

8. Huquqiy-ekologik nizolarni tinchlik bilan xal qilish prinsipi xalqaro huquq subyektlari orasida ushbu nizolar orqali atrof tabiiy muhitga yanada ko`proq zarar yetkazuvchi "sovuq urush"larni yoki harbiy to`qnashuvlarni oldini olishga qaratilgandir.<sup>1</sup> Zamon talabi har qanday salbiy jarayonlarni diplomatik vositalar orqali xal qilish va davlatlarning butun kuchini har qanday urushlarga emas, balki insonlarga xavf solayotgan ekologik inqirozlarga sarf qilishlarini da'vat qiladi.

Xulosa qilib aytganda BMT Nizomining 2-moddasida ko`rsatib o`tilgan va uning hamma a'zolari uchun majburiy hisoblangan xalqaro munosabat prinsiplari xalqaro ekologik prinsiplar zaminida yotadi.

### **1.2. Atrof tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilish manbalari.**

Atrof tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilish manbalari moddiy nuqtai nazardan butun dunyo hamjamiyati a'zolarining atrof tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanishdagi xohish va irodalari tushuniladi.

Rasman esa atrof tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilish manbai deb xalqaro ekologik munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar yig`indisiga aytiladi.

Xalqaro huquqiy hujjatlarga - shartnoma, kelishuv, konvensiya, rezolyutsiya, xartiya, deklaratsiya, qaror (protokol)lar kiradi. Ayrim hollarda xalqaro-huquqiy hujjatlarga davlatlarning ichki qonunlarini ham kirgazardilar, qachonki milliy qonunlar xalqaro-huquq me'yorlariga nisbatan atrof tabiiy muhit muhofazasi ko`proq ta'minlab bera oladigan bo`lsa. Nima bo`lganda ham milliy qonunchilik, bizning fikrimizcha, to`lig`icha xalqaro-huquqiy manba bo`la olmaydi. Faqatgina ma'lum bir xalqaro huquq subyekti bo`lmish davlatlar hududida ekologik talablarga ko`proq javob beradigan normalar qo`llanishi mantiqan to`g`ri deb topilgandir.

---

<sup>1</sup> Ekologiya huquqi. Darslik/ J.T.Xolmuminov, N.B.Shoyimov, O.A.Kamolov, O.J.Xolmuminov.-T.: O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014.-2446.

Atrof tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilishda markaziy o`rinni rezolyutsiyalar egallaydi. Chunki Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi rezolyutsiyalarida davlatlarning xalqaro hamkorlikdagi ekologiyaga oid asosiy prinsiplari va harakat qoidalari aks etgan. "Rezolyutsiya" lotin tilida "xal qilish", ya'ni ma'lum bir yig`in (syezd, komitet, konferensiya, simpozium...)larning xulosalovchi yoki xal qiluvchi qarorlari.

BMT Bosh Assambleyasining 1962-yil 18-dekabr "Iqtisodiy rivojlanish va tabiat muhofazasi", 1968-yil 3-dekabr "Insonlarning ekologik huquqlari", 1980-yil 20-sentabr "Hozirgi va kelajak avlodlar oldida davlatlarning Yer tabiatini muhofaza qilishdagi javobgarligi to`g`risida"gi rezolyutsiyalarida tabiatni muhofaza qilishning bir butunligi, ya'ni uning tarkibiy qismlari (komponentlari)ning ajralmasligi, tabiatni muhofaza qilish insonlarni o`rab turuvchi atrof muhitni muhofaza qilish bilan yagona ma'noni anglatishi e'tirof qilindi. Undan tashqari, ushbu anjuman rezolyutsiyalarida iqtisodiy rivojlanish tabiatni muhofaza qilish bilan o`zaro uyg`unlashgan holda bo`lishi, inson huquqlaridan biri ekologik xavfsiz muhitda yashash huquqi ekanligi, qurollanishni kamaytirish orqali davlatlarning tabiatni muhofaza qilishga bo`lgan e'tiborini kuchaytirish kerakligi kabi qarorlari o`z o`rnini topgan.

Xalqaro-ekologik munosabatlarda ko`pincha "xartiya" so`zi ishlatiladi. Xartiya - grekchada "qog`oz", ya'ni qog`ozga bitilgan ommaviy va siyosiy hujjat ma'nosida ishlatiladi.<sup>1</sup> 1982-yil 28-oktabrda BMT Bosh Assambleyasi 37-sessiyasida qabul qilingan "Umumjahon tabiatni muhofaza qilish xartiyasi"da xalqaro ekologik huquqning 24 prinsipi qabul qilingan va unga binoan BMTga a'zo mamlakatlar o`zining milliy ekologik qonunlarini ularga moslashtirishlari kerak.

Xalqaro huquqda amaldagi milliy qonunchilikni xalqaro huquq talablariga moslashtirishni "implementatsiya" deyiladi. BMTning mustaqil subyekti bo`lmish O`zbekiston Respublikasi xalqaro hamjamiyatga dadil qadamlar bilan kirib borar ekan, huquq sohasida uning oldida 3 katta vazifa turadi: 1) mamlakatda demokratik

---

<sup>1</sup> Usmonov M.B. (Hammualiflikda). Ekologiya huquqi. Darslik. -T.: Yozuvchi, 2001. 240 b.



jamiyatni barpo etish va mo'tadil iqtisodiy rivojlanishni ta'minlab beruvchi huquqiy me'yoriy hujjatlar qabul qilish; 2) milliy qonunchilikni nafaqat Konstitutsiyaga, balki xalqaro prinsiplarga ham moslashtirish; 3) albatta, ushbu takomillashgan qonun me'yorlarini hayotga tadbiq qilish mexanizmini yaratish.

Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunining 4-moddasida ko'rsatib o'tilgan: fuqarolarning hayoti uchun qulay tabiiy muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlash, tabiatni muhofaza qilish sohasida milliy, regional va xalqaro manfaatlarni uyg'unlashtirish; insonning yashash muhiti bo'lmish biosfera va ekologik tizimlarning barqarorligini saqlab qolish prinsiplari tabiat xartiyasida ko'rsatib o'tilgan xalqaro qoidalarga mos tushadi.

1990-yil 21-noyabr "Yangi Yevropa uchun Parij xartiyasi"da (1993-yil 27-noyabrdan O'zbekiston Respublikasi ham qo'shilgan) insonlarni yashash huquqi elementi bo'lgan ekologik xavfsiz muhitni yaratish har bir ishtirokchi mamlakatning burchi ekanligi alohida ta'kidlangan.

Shartnoma - siyosiy ahamiyat kasb etuvchi va boshqa siyosiy, iqtisodiy, ma'rifiy-madaniy masalalar qatori atrof muhit muhofazasiga ham oid xalqaro me'yorlarni o'zida aks ettiruvchi hujjat. Shartnomalar XX asrning ikkinchi yarmida keng tarqalgan xalqaro huquq manbai bo'lib, ular umumiy, regional va ikki tomonlama tuzilishi mumkin.

Dunyoda 300 dan ziyod ekologik munosabatlarni o'zida qamrab olgan xalqaro shartnomalar tuzilgan bo'lib, ularning ichida eng salohiyatliklari umumiy turdagi "Yevropa xavfsizlikni ta'minlashning yakuniy shartnomasi" (Xelsinki, 1975-yil), "Atmosfera, kosmik fazo va suvda yader qurollarini sinashni to'xtatish to'g'risida" (1963-yil), "Yader qurolini tarqatmaslik to'g'risida" (1968-yil) kabi shartnomalar bo'lib, ular butun dunyo mamlakatlari uchun taalluqlidir.

Regional turdagi shartnoma Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida 1992-2000 yillar ichida tuzilgan bir qator o'zaro hamkorlik shartnomalari misol bo'la oladi.

Ikki tomonlama O'zbekiston - Qozog'iston, O'zbekiston-Tojikiston, O'zbekiston-Qirg'iziston, O'zbekiston-Turkmaniston respublikalari o'rtasida

tuzilgan shartnomalar atrof muhitni birgalikda muhofaza qilish va ayniqsa ularning hududlarida oqib o'tadigan suv resurslaridan unumli foydalanish va ularning ifloslanishini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish kabi xalqaro huquqiy me'yorlar belgilanib olingan.

Agarda shartnoma ma'lum bir turdagi xalqaro munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo'lsa, u "Konvensiya" deb ataladi. Konvensiya - lotin tilida "shartnoma", "shart", "kelishuv" degan ma'noni anglatadi.<sup>1</sup> Konvensiya ikki va undan ortiq xalqaro tabiiy obyektlarni muhofazalash yoki ulardan birgalikda foydalanishni nazarda tutsa kompleks-ekologik, ma'lum bir turdagi xalqaro tabiiy obyektidan foydalanishni nazarda tutsa resurs-ekologik deb ataladi.

Kompleks ekologik konvensiyalarga BMTning YUNESKO xalqaro tashkiloti tomonidan 1972-1973 yillarda qabul qilingan "Butunjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish" va "Yo'qolish xavfida turgan yovvoyi turdagi fauna va flora turlarini savdo qilish" konvensiyalari kiradi.

Resurs-ekologik konvensiyalarga 1979-yili Bonnda qabul qilingan "Ko'chib yuruvchi yovvoyi hayvonlarni muhofaza qilish", 1985 yili Venada qabul qilingan "Ozon qatlamini himoya qilish" kabi ekologik shartnomalar kiradi.

O'zbekiston Respublikasida Vena konvensiyasi doirasida xalqaro shartnoma majburiyatlarining bajarilishi, orttirilgan tajriba va xalqaro amaliyotda xalqaro hujjatlar amalga bajarib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 27 maydagi "2013-2017 yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit muhofazasi bo'yicha harakatlar dasturi to'g'risida"gi qarori bu boradagi ishlarni yanada rivojlantirishga xizmat qilayotir. Mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan ilmiy va amaliy ishlar muhim samaralar berayotir. Yurtimizda ozonni emiruvchi moddalardan foydalanish to'xtatilib, sanoatning bu tarmog'ida ekologik sof texnologiyalar joriy etildi. Ozonga zarar etkazuvchi moddalarni zararsizlantirish, sovutish jihozlari hamda vositalariga texnik xizmat ko'rsatish amaliyoti takomillashtirildi. Bu

---

<sup>1</sup> Usmonov M.B. (Hammualiflikda). Ekologiya huquqi. Darslik. -T.: Yozuvchi, 2001., 241 b.

yo`nalishdagi ishlarni yanada kengaytirish maqsadida innovatsion loyihalar davom ettirilmoqda. O`tgan davrda ushbu loyihalar doirasida sanoat korxonalarini modernizatsiyalash, mutaxassislarning malakasini oshirish, ilmiy-amaliy ishlarni takomillashtirish borasida qator chora-tadbirlar bajarildi. Vena konvensiyasi talablari ijrosi hamda Milliy dastur doirasida ozon qatlamini emiruvchi moddalarni muomaladan bosqichma-bosqich chiqarishni ta'minlash maqsadida sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni ozonga xavfsiz mahsulotlarga o`tkazishni qo`llab-quvvatlash, ozon qatlamini emiruvchi moddalar va tarkibida ular mavjud bo`lgan mahsulotlarni utilizatsiya qilish tizimini ishlab chiqish, ushbu moddalar noqonuniy aylanishining oldini olish bo`yicha chora-tadbirlar shular jumlasidandir.<sup>1</sup>

O`zbekiston Respublikasi xalqaro hamjamiyatning mustaqil subyekti sifatida quyidagi ekologik konvensiyalarga qo`shilgan:

1993-yil 14-maydan "Iqlimga ta'sir etishni chegaralash".

1995-yil 13-oktabrdan "Saxrolanishga qarshi kurash".

1995-yil 15-iyundan "Afrika-Osiyo qit'alarida ko`chib yuruvchi qushlarini muhofaza qilish".

1996-yil 7-maydan "Biologik xilma-xillik".

1996-yil 7-maydan "Xavfli chiqitlarni tashish va ularni yo`qotish"

1997-yilda "Yo`qolib ketish xavfi ostidagi yovvoyi flora va fauna turlarining xalqaro savdosi to`g`risida"

2004-yil 27-avgustda "O`simliklarning yangi navlarini muhofaza qilish to`g`risida"gi konvensiyasi.

Qabul qilingan konvensiyalarni amaliy tadbiriq qilish uchun O`zbekiston Respublikasi Davlat ekologiya qo`mitasi tomonidan quyidagi tadbirlar ishlab chiqilmoqda va amalga oshirilmoqda:

- ozon qatlamiga salbiy ta'sir etuvchi moddalarni inventarizatsiya qilish;
- Vena konvensiyasi va Monreal qarori bo`yicha "Ozon qatlamini muhofaza qilishning Milliy Dasturini tayyorlash";

---

<sup>1</sup> Nurillo Nasriev Xalqaro ozon qatlamini muhofaza qilish. 15.09.2017 <https://www.uza.uz>

- Biologik xilma-xillikni saqlash konvensiyasi bo`yicha Milliy Dastur ishlab chiqish va h.k.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish masalasida mustaqil respublikamiz diplomatik munosabatlarda ko`proq ikki va ko`p tomonlama kelishuvlar qo`llanilmoqda.<sup>1</sup>

1996-yil 8-mayda O`zbekiston Respublikasi bilan Turkiya Respublikasi va 1997-yil 11-dekabrda Xitoy Xalq Respublikasi o`rtasida tabiatni muhofaza qilishga doir kelishuvlarga imzo chekilgan. Xuddi shunday masaladagi kelishuvlar O`zbekiston-Germaniya, O`zbekiston-Niderlandiya Qirolligi, O`zbekiston-Vengriya, O`zbekiston-Slovakiya, O`zbekiston -Isroil, O`zbekiston-Lyuksemburg va O`zbekiston-Yevropa Ittifoqi bilan imzolangan.

Hamdo`stlik mamlakatlari Ukraina, Qozog`iston, Belarus, Qirg`iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Gruziya respublikalari bilan ham O`zbekiston Respublikasi ikki tomonlama ekologik masalalar bo`yicha kelishuvlarga ega. Qirg`iziston, Qozog`iston va O`zbekiston respublikalari o`rtasida ko`p tomonlama atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish borasida kelishuv mavjud.

1992 yil 8 fevral Moskvada qabul qilingan MDH mamlakatlari orasidagi kelishuvga binoan (2-modda) Oliy darajadagi tomonlar qatnashchilari (Ozarbayjon, Armoniston, Belarus, Qozog`iston, Qirg`iziston, Moldova, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston, Turkmaniston, O`zbekiston respublikalari) o`z hududlarida:

- atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo`yicha qonun hujjatlarini, ekologik huquqiy me`yorlarni va standartlarni ishlab chiqadi va qabul qiladi;

- tabiiy resurslar va ulardan oqilona foydalanishning son va sifat ko`rsatkichlarini hisobini oladi va ekologik monitoringni olib boradi;

- atrof tabiiy muhit va resurslar holati, ularni o`zgarib borishi haqida samarali davlat nazoratini o`rnatadi;

---

<sup>1</sup> Hakimov N.H., Abirqulov Q.N., Rajabov N., Islomov A.A. Atrof -muxit muxofazasi. O`quv qo`llanma. T.: 2010., 98b.

- jonli resurslarni takror ishlab chiqarish, biologik xilma-xillikni saqlash va ularni tiklash bo'yicha tadbirlar qabul qiladi;

- qo'riqxonalar, buyurtma qo'riqxonalar, milliy bog'lar va boshqa alohida muhofaza etiladigan tabiiy hudud va komplekslarni rivojlantiradi va ular atrofidagi tegralarda xo'jalik va boshqa inson faoliyatini cheklaydi;

- o'z hududlarida xo'jalik va boshqa faoliyatlarni ekologik oqibatlarini har tomonlama baholab boradi;

- tabiiy ofat, ekologik falokat va inqirozlarni oldini olish uchun kerakli bo'ladigan maxsus kuchlarni va vositalarni tashkil qiladi va ularning faoliyatini ushlab turadi.

Xalqaro ekologik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda "Deklaratsiya" (lotin tilida - e'lon qilish, tushuntirish), ya'ni ma'lum bir tashkilot, davlat yoki partiyalarning asosiy prinsip va me'yorlarini tantanali ravishda e'lon qilish ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ularga misol qilib 1986-yil 4 oktabrda BMT tomonidan qabul qilingan "Rivojlanish huquqi to'g'risida", 1969-yil 11 dekabr "Ijtimoiy rivojlanish va taraqqiyot", 1975 yil 10 noyabr "Ilmiy - texnik rivojlanishdan tinchlik va inson farovonligi yo'lida foydalanish" kabi deklaratsiyalarni keltirish mumkin.<sup>1</sup>

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishga doir xalqaro munosabatlarni tartibga solishda memorandum (lotin tilida - nimani tushuntirmoq kerak, ya'ni diplomatik mulohazalar predmeti bo'lgan masalalarni aks ettiruvchi hujjat), qaydnoma (asosiy shartnomaga qo'shimcha qilinadigan hujjat)larni ham juda katta ekologik ahamiyati bor.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning xalqaro-huquqiy obyekt deb xalqaro-huquq subyektlarining ekologik munosabatlar predmeti bo'lgan tabiiy obyektlar, ya'ni o'zining xususiyati, joylanishi va ahamiyati nuqtai nazardan biron bir davlat yuridiksiyasiga kirmaydigan va shuning uchun ham ikki va undan ortiq mamlakatlar yoki xalqaro-huquq subyektlari mulki bo'lgan tabiiy obyektlardir.

---

<sup>1 1</sup> Usmonov M.B. (Hammualiflikda). Ekologiya huquqi. Darslik.-T.: Yozuvchi, 2001.,242b.

Misol tariqasida Amudaryo va Sirdaryolarni olsak bo`ladi. Ular o`z tabiiy xususiyatiga va ahamiyatiga ko`ra ekologiya huquqining obyektidir. Lekin ulardan huquqiy foydalanish va ularni muhofaza qilish faqatgina O`zbekiston Respublikasi tomonidan amalga oshira olinmaydi. Chunki bu ikki buyuk daryo Qirg`iziston, Tojikiston, Afg`aniston respublikalaridan boshlanadi va qo`shni Qozog`iston va Turkmaniston respublikalaridan oqib o`tadi. Bu daryolarning yuqori qismidagi suvlarni ifloslantirish yoki suv rejimini o`zgartirish albatta ular oqib o`tadigan davlatlarga salbiy ta'sir ko`rsatishi mumkin. Shuning uchun ham bunday obyektlardan foydalanish va muhofa qilish xalqaro huquq manbalari orqali tartibga solib turiladi.

Xalqaro ekologik-huquqiy obyektlarning ikki turi: xalqaro-huquqiy muhofazalash obyektlari va xalqaro-huquqiy tabiiy obyektlar mavjud.

Xalqaro-huquqiy muhofaza qilish obyektiga havo basseyni, fazo, dunyo okeani, Antarktika, ko`chib yuruvchi hayvonlar va qushlar kiradi.<sup>1</sup>

Xalqaro-huquqiy tabiiy obyektiga - implementatsiya qilingan milliy qonunlar asosida muhofaza qilinadigan va ulardan foydalanadigan tabiiy obyektlar kiradi. Ikki va undan oshiq mamlakatlar hududlarida joylashgan daryolar, ko`llar, dengizlar hamda xalqaro Qizil kitobiga kimgazilgan noyob va yo`q bo`lib ketayotgan o`simlik va hayvonot dunyosi turlari kiradi.

Havo basseyni o`z ichiga Yerning atmosfera qatlamini qamrab oladi. Garchand uning muhofazasi milliy qonunlar bilan ham tartibga solinsada, lekin atmosfera qatlamidagi iqlim resurslari doimo sirkulatsiya (aylanma harakat)da bo`lgani uchun ham bu qatlamdagi barcha jarayonlar hech qanday ma'muriy chegaraga bo`ysinmaydi.

Havo basseynining xalqaro muhofazasi asosan 4 yo`nalishda amalga oshiriladi:

- 1) iqlim va ob-havoga salbiy ta'sirning oldini olish;

---

<sup>1</sup> Ekologiya huquqi. Darslik/^ J.T.Xolmuminov, N.B.Shoimov, O.A.Kamolov, O.J.Xolmuminov.-T.: O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014.-238b.

2) atmosfera havosini ifloslantirishni davlatlararo tarqalishini oldini olish va bartaraf qilish;

3) ozon qatlamini yemirilishdan muhofazalash;

4) atmosfera havosini nazoratlash va tozalash borasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Global miqyosda havo basseyinini muhofaza qilishda 1977 yilda qabul qilingan "Tabiiy muhitga harbiy va boshqa har qanday adovatli ta'sir qiluvchi maqsadlarda foydalanishni taqiqlash" hamda 1985 yilgi Vena va 1989 yilgi Bazel konvensiyalarini keltirib o'tish joizdir.

Fazo havo basseynidan farqli, biron bir davlat yuridiksiyasiga kir-maydigan xalqaro-huquq obyektini hisoblaniladi. Bu o'rinda 1963-yil BMT Bosh Assambleyasining "Kosmik kenglikdan foydalanishda davlatlar faoliyatining huquqiy prinsiplari Deklaratsiyasi" va 1967-yildagi "Fazo Kengligi, Oy va boshqa osmon jinalaridan foydalanish va ularni tadqiq qilishda davlatlar faoliyatining prinsiplari to'g'risida"gi kelishuvlarni misol qilib olsak bo'ladi. Bu xalqaro me'yoriy hujjatlarga muvofiq Fazo umum insoniyat boyligi va undan foydalanishni faqatgina tinchlik yo'lida amalga oshirilishi hamda ularni ifloslantirish va unga salbiy ta'sir ko'rsatishga yo'l qo'yilmaydi. Ammo hozirgi kunda fazoni "zabt etgan" mamlakatlar undan millitaristik yo'lida foydalanishni to'xtatayotganlari yo'q. Fazoda minglab harbiy shpion fazo kemalari uchib yuribdi. 3,5 mln.dan oshiq turli ko'rinishdagi fazoviy chiqitlar mavjud va ular erkin harakatdir.

Dunyo okeanlari Yer sharining 3/2 qismini band etgan holda, butun suvlarning 97% o'zida mujassamlashtirgan. Ular nafaqat arzon va qulay transport yo'li, balki oziq-ovqat maskani hamda Yerdagi hayotni ushlab turuvchi yetakchi omil hamdir. Chunki atmosfera havosidagi 70% kislorod okeanlardagi fitoplanktonlarning fotosintez jarayonlarida qatnashuvi orqali yuzaga keladi. Dunyo okeani suvning ekologik tizimdagi katta aylanishi jarayonida faol qatnashadi va u "tozalovchi filtr" bo'lib xizmat qiladi.<sup>1</sup> Dunyo okeanlaridan foydalanish hech qaysi davlatning yuridiksiyasiga kirmaydi va shuning uchun ham

---

<sup>1</sup> Suv huquqi. Darslik/yu.f.d.prof. J.T.Xolmuminovning umumiy tahriri ostida.-T.,2011.,198b/

uning muhofazasi xalqaro huquqiy me'yorlarning amaliy samaradorligiga to'g'ridan to'g'ri bog'liqdir.

Dunyo okeanlarini huquqiy muhofazalash shu kunda qo'yidagi yo'nalishlarda olib borilmoqda:

- ximik va radioaktiv moddalardan, neft va neft mahsulotlaridan ifloslanishini oldini olish;

- harbiy maqsadlarda okeanlardan foydalanishni to'xtatish;

- okean faunasi va florasini saqlab qolish, qayta tiklash va takroriy ishlab chiqarish;

- okean resurslaridan o'ta samaradorlik bilan foydalanish va hokazo.

1963 yilda qabul qilingan "Atom qurolini sinovdan o'tkazishni uch sferada taqiqlash to'g'risida"gi shartnomaga bino hech qaysi bir davlat okeanda o'z qurollarini sinashlari mumkin emas. 1954, 1962, 1969, 1971, 1972-yillarda qabul qilingan Dunyo okeanini muhofaza qilishga qaratilgan bir qator Konvensiya va Qaydnomalarga binoan kemalardan inson va jonli mavjudga ta'sir qiluvchi neft va boshqa mahsulotlarini oqizish, tashlash qat'ian man qilinadi va ularga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zarar uchun javobgarlik belgilangan. Keltirilgan zararni iqtisodiy qoplash maqsadida har bir kema va kompaniyalar sug'urtalanishi va moliyaviy hujjatga ega bo'lishi kerak.

1990 yildan boshlab AQSH portlariga faqatgina ikki qavatli korpusga ega bo'lgan neft tankerlarining kirishiga ruxsat beriladi. Chunki dengiz va okeanlarning ifloslanishida neft tankerlarining "xizmati" juda katta. Masalan, 1973-yili talofatga uchragan "Amoko Kazus" supertankeridan 220 ming tonna, 1989-yili Ispaniya supertankeridan 217 ming tonna neft okeanga oqizilgan. 1989-yil Alyaska qirg'oqlarida dengiz riflari urilgan "Ekason Valdiz" kemasidan oqizilgan neftni tozalash uchun 2 mlrd. amerika dollari sarf qilingan. 1967 yilda Liberiya tankeri falokati Angliya va Fransiya davlatlarining 180 kilometrlik masofada qirg'oq bo'yini ifloslantirgan.

Okeanlar uchun yana bir katta xavf to'g'dirayotgan ifloslanish omili - radioaktiv chiqitlarni okeanlarga tashlash va joylashtirish. Atom floti va atom



sanoatini yo`lga qo`yilgan mamlakatlar tomonidan yiliga minglab tonna miqdorida o`ta xavfli bo`lgan radioaktiv chiqitlar dunyo okeanlariga tashlanmoqda.

Antarktika - hech qaysi bir davlat yuridiksiyasida kirmaydigan va xalqaro-huquqiy me'yorlar bilan tartibga solib turiladigan Yer kurrasidagi eng sovuq, oltinchi qit'a. Bu qit'ani muhofaza qilish va undan foydalanish Antarktika to`g`risidagi shartnomaga ko`ra (1959-yil) olib boriladi. Shartnomaga ko`ra Antarktikadan ilmiy maqsadlarda erkin foydalaniladi; va harbiy yo`nalishdagi har qanday harakatlar bu qit'ada man qilinadi, ulardagi dengiz va kuruqlik hayvonlaridan foydalanish va ularni muhofazasiga doir maxsus "Antarktika havzasidagi hayvonot dunyosini muhofaza qilish to`g`risida"gi konvensiyaga muvofiq amalga oshiriladi. BMT ning YUNEP tashkiloti Antarktikadagi ekologik munosabatlarni tartibga solishni kuzatib boradi.

Xalqaro Qizil kitob – 1972 yili noyabr oyida bo`lib o`tgan BMT YUNESKO tashkilotining konferensiyasida qabul qilingan "Umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to`g`risida"gi konvensiyaga muvofiq tuzildi. Unda Yer kurrasida noyob va yo`qolish xavfi ostida turgan o`simlik va hayvonot dunyosi turlarining biologiyasi, tarqalishi, yo`qolib ketish sabablari va muhofaza qilish choralari ko`rsatib o`tilgan.

Xalqaro tabiatni qo`riqlash ittifoqi Qizil kitob uchun ma'lumotlarni 1949 yildan beri to`playdi va 1966-yili "Red Data Book" nomi bilan ingliz tilida chop etdi. XX asrning 80 yillarning boshiga kelib sut emizuvchilarning 236, qushlarning 485, sudralib yuruvchilarning 141, baliqlarning 194 turlari Qizil kitobga kiritildi. Hozirgi kunda ularning soni 2 karragacha ko`paygan.<sup>1</sup>

Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan flora va fauna dunyosi turlari qaysi bir mamlakat hududida yashashidan qat'i nazar ular muhofaza qilinishlari va xalqaro tashkilotlar tomonidan nazorat ostida bo`lishlari kerak.<sup>2</sup> Ko`chib yuruvchi hayvonlar va qushlarning vaqtinchalik yashash makoni bo`lgan botqoq, ko`l, daryo yoki landshaftlar alohida muhofaza qilinadigan tabiiy obyektlar toifasiga

---

<sup>1</sup> O`zbekiston Respublikasi qizil kitobi.II-jild.Hayvonot olami.-T., 2003.16b

<sup>2</sup> O`zbekiston Respublikasi qizil kitobi.I-jild.Hayvonot olami.-T., 1998.,21b.

kirgazilishini xalqaro huquqiy normalar talab qiladi. YUNESKOning "Kishilar va biosfera" xalqaro dasturida muvofiq O`zbekistonda yangi ko`rinishdagi - biosfera qo`riqxonasi tashkil etildi.

Bo`linadigan tabiiy resurslarga doimo yoki vaqtinchalik ikki va undan oshiq mamlakatlar hududlarida joylashgan dengiz (Boltik, Oxota, Xitoy), daryo (Dunay, Sirdaryo, Amudaryo), ko`llar (Buyuk ko`llar, Kaspiy, Orol) kiradi.

Bo`linadigan tabiiy resurslarni huquqiy tartibga solish asosan undan manfaatdor mamlakatlar o`rtasidagi manbalarga tayangan holda amalga oshiriladi. Bu me'yoriy hujjatlarda ulardan foydalanish, ularni muhofaza qilish, ularga oid nizolarni xal qilish, to`lovlar, takroriy ishlab chiqarish masalalari aks etadi. Boshqaruv organi sifatida turli shakldagi ekologik komissiya yoki komitetlar tuziladi. Masalan, Orol ko`li va uning havzasi bo`yicha Markaziy Osiyo davlatlarining "Orolni qutqarish" doimiy komissiyasi ishlab turibdi. 1995 yil BMTning Orol havzasiga bag`ishlangan maxsus xalqaro konferensiyasida Nukus deklaratsiyasi, 1997 yil 28 fevralida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Almati uchrashuvida Almati deklaratsiyasi qabul qilindi. "Orol dengizini qutqarish" xalqaro jamg`armasi tashkil etildi va qatnashuvchi mamlakatlar (O`zbekiston, Qozog`iston, Tojikiston, Turkmaniston respublikalari) yillik badallari mamlakat budjetidan 0,3 % miqdorida belgilandi.<sup>1</sup>

Orol dengizi suvini to`yintirib turuvchi ikki daryo Amudaryo va Sirdaryolar ham xalqaro -huquq obyektini hisoblaniladi. Ulardan foydalanishni tartibga solishni "Basseynlar bo`yicha komissiyalar" ko`rib chiqadilar va har yili, sharoitga qarab, xalqaro huquq subyektlarining foydalanish bo`yicha aniq bir me'yoriy hujjatlarni qabul qiladilar.

Atrof tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilish manbalari moddiy nuqtai nazardan butun dunyo hamjamiyati a'zolarining atrof tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanishdagi xohish va irodalari

---

<sup>1</sup> Shoimov N.B. Xalqaro ekologik xavfsizlikni ta'minlashda O`zbekistonning tltgan o`rni///Xalqaro huquqiy munosaatlarda O`zbekistonning tltgan o`rni va roli: Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari.-T.,2011.22 aprel-B251-255

hisoblanib xalqaro ekologik munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar yig'indisidir.

Xalqaro huquqiy hujjatlarga shartnoma, kelishuv, konvensiya, rezolyutsiya, xartiya, deklaratsiya, qaror (protokol)lar kiradi.

### **1.3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ekologik munosabatlarni tartibga soluvchi manba**

Istiqlol yillarida mamlakatimizda inson huquq va erkinligi, qonuniy manfaatlarini oliy qadriyat hisoblab demokratik huquqiy davlat qurish, hamda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohani shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi qonunchilikni rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratildi.

Demokratik jamiyat qurishni huquqiy kafolati keng ko'lamdagi umumxalq muhokamasidan so'ng 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan. Mustaqil O'zbekistonning Konstitutsiyasi – mamlakatimizning bosh qomusining eng ilg'or g'oyalarga asoslangan o'ziga xos xususiyatini e'tirof etish lozim. Birinchidan, Konstitutsiyaning norma va qoidalari o'zbek xalqining chuqur tarixiy ildizlariga asoslangan. Ikkinchidan, u buyuk ajdodlarimizning ko'p asrlik tajriba, milliy qadriyatlar va boy huquqiy merosini o'ziga singdirgan. Uchinchidan, u jahondagi eng ilg'or, etuk konstitutsion tajribani o'z ichiga olgan. To'rtinchidan, xalqaro standartlarga asoslangan shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish va ta'minlash mexanizmi belgilangan. Bunda jahonning ilg'or konstitutsion tajribasi konstitutsion kafolat va konstitutsion boshqaruv tamoillari orqali Konstitutsiyaning barqarorligi va ustuvorligi, hokimiyatning bo'linishi, fuqarolarning huquqi, fikrlash, so'z, vijdon va e'tiqod erkinligi, xalqaro huquq normalariga sodiqlikni talab qiladi. Mustaqil O'zbekiston asosiy qomusining o'ziga xos farqli tomoni unda dunyoning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlari demokratik konstitutsiyalariga xos fuqarolik jamiyati, hokimiyatning bo'linishi, hokimiyatni tiyib turish va o'zaro manfaatlar muvozanati mantiqiy hisobga olingan normalarning mavjudligidir.

Mamlakatimizning Bosh Qomusi – Konstitutsiyamizning 17 moddasida esa, respublikamiz fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va

saylanish huquqiga ega<sup>1</sup> ekanligi alohida qayd etilgan. Ovoz berish huquqi, o'z – xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlangan. Joriy yilning 4 dekabr kuni mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muhim voqea – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida ham yurtdoshlarimiz o'z konstitutsiyaviy huquqlaridan foydalanib, Vatanamiz taqdiriga daxldorlik hissi bilan faol ishtirok etdilar.

Sh.Mirziyoev “Bugun mamlakatimiz mustaqil rivojlanishining qariyb chorak asrlik tarixida bosh qomusimiz – Konstitutsiya qabul qilinganining 24 yilligini nishonlar ekanmiz, fuqarolarni huquq va erkinliklarini ta'minlashda, shaxs manfaatlarining davlat manfaatlaridan ustunligi mustahkamlanganligida uning ulkan roli va ahamiyatini ishonch bilan tasdiqlashimiz mumkin<sup>2</sup> deydi.

Bu o'rinda, albatta, atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona va samarali foydalanish, aholi salomatligini himoyalash, insonlar uchun qulay ekologik muhit yaratish borasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishni ta'minlovchi ekologik qonunchilikka alohida ahamiyat qaratildi.

Istiqlolning dastlabki yillarida iqtisodiy va ekologik munosabatlarda sodir bo'lgan o'zgarishlar tabiatni muhofaza qilish, undan oqilona foydalanishning hamda bozor iqtisodiyoti sharoitida ekologik qonunchilikni yanada rivojlantirish uchun zarur huquqiy bazani shakllantirishning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlovchi Asosiy qonunda o'z aksini topdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolarning qulay ekologik muhitda yashash, tabiiy resurslarga, ulardan oqilona foydalanishga bo'lgan huquqni mustahkamladi, ular davlat muhofazasida ekanligini kafolatladi hamda fuqarolarning atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish majburiyatini belgiladi. Bu esa ekologik qonunchilikni yanada rivojlanishi uchun tayanch nuqtaga aylandi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent.O'zbekiston, 2017, 17-modda, 4b

<sup>2</sup> Sh.Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.Toshkent.O'zbekiston, 2017.1-jild,95b.

Tarixdan ma'lumki, Konstitutsiya - bu davlatning bosh qonuni hisoblanib, mazkur me'yoriy-huquqiy hujjat boshqa qonunlarning qabul qilinishida asosiy manba bo`lib xizmat qiladi.

Mana, qariyb chorak asrki, davlatimiz taraqqiyotining maqsad va istiqbollarini belgilab bergan mamlakat barqarorligi hamda ijtimoiy ravnaqi poydevoriga asos solgan O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolarning ekologik huquq va erkinliklari garovi bo`lib ham xizmat qilmoqda.

Inson qadr-qimmati, or-nomusi, g`ururi, erkinligi va haq-huquqlari, farovon turmushi va kelajagi ifodalangan qomusiy hujjatdir. U O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'biri bilan aytganda, "...xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir. U hech kimga qaram bo`lmasdan, erkin va ozod, tinch va osoyishta, farovon yashashning qonuniy kafolati bo`lib kelmoqda. Bozor munosabatlari asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish borasida mustahkam poydevor bo`lib xizmat qilmoqda<sup>1</sup>".

Konstitutsiyamizda mamlakatimizdagi barcha tabiiy resurslarning muhofaza qilinishi va ulardan oqilona foydalanish lozimligini e'tirof etilishi muhim ahamiyatga ega. Zero, bu holat davlatning ekologik siyosati to`g`ri olib borilishini, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va muhofaza qilishni, tabiiy resurslarga nisbatan mulkchilikni, atrof tabiiy muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo`lishni hamda bu sohada davlat boshqaruvi masalalarini, unga asosan ekologik qonunlarni qabul qilishni o`zida namoyon etadi.

Bosh qomusimizning bir necha moddalari insonning yashash uchun qulay tabiiy muhitga ega bo`lish huquqi, tabiatni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan bo`lib, u mazkur jarayonda O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qator moddalariga asoslanadi. Xususan, Konstitutsiyaning 50-moddasida «Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo`lishga majburdirlar»,<sup>2</sup> deb ko`rsatilgan. Bu esa o`z vaqtida fuqarolar tomonidan er, suv, o`rmon, er osti boyliklari, hayvonot va o`simliklar

---

<sup>1</sup>Sh.Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz.Toshkent.O`zbekiston, 2017.1-jild,97b.

<sup>2</sup> O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent.O`zbekiston, 2017, 50-modda, 9b

dunyasini va boshqa tabiiy zahiralardan oqilona foydalanishni, ularni tiklash va muhofaza qilishni hamda ushbu majburiyatni o'z vaqtida bajarishni ham taqazo etadi. Ushbu holat ekologik sohaga oid barcha qonunlarda ham aniq tarzda o'z ifodasini topganligi muhim ahamiyatga ega bo'lib, konstitutsion talablarni mustaxkamlaydi.

Bosh Qomusimizning 54-moddasida «Mulkdor mulkiga o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar etkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart»<sup>1</sup>, deb belgilangan.

Bu esa har qanday mulk egasi, mulkdor tegishli mulkdan foydalanishda amaldagi ekologik qonun talablari va majburiyatlarini bajarishi hamda ularga to'liq rioya etishi lozimligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida esa, er, er osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralari umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasida<sup>2</sup> ekanligi ko'rsatilgan.

Bundan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida tabiatni muhofaza qilish va ekologiya bilan bog'liq ko'plab masalalar o'z ifodasini topgan. Umuman olganda, mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida qabul qilingan qonunlar insonning yashash uchun qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish huquqini kafolatlaydi.

Mazkur konstitutsiyaviy huquqlar tabiatni muhofaza qilish sohasidagi kompleks xarakterdagi dastlabki huquqiy hujjat hisoblanuvchi O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunida batafsil ochib berilgan. Uning asosida tabiatni muhofaza qilish qonunchiligi izchil va bosqichma-bosqich shakllantirildi. Bugungi kunda respublikada aholi salomatligi, atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent.O'zbekiston, 2017, 54-modda, 9b

<sup>2</sup> O'sha erda, 55-modda, 10b

xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi bevosita 30 dan ortiq muhim qonunlar hamda 150 ga yaqin qonunosti hujjatlari qabul qilingan. Ekologik qonunchiligimiz inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning xuquqiy asoslarini belgilab berishda xizmat qilib kelmoqda. 2013 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonuni aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, atrof muhitni va aholi salomatligini muhofaza qilishda jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish va jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligini kengaytirishning xuquqiy asoslarini belgilab berdi. Shuningdek, qonunda ekologik nazoratning jamoatchi inspektori instituti joriy etilmoqda, ushbu tizimni shakllantirish huquqi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlariga berilmoqda.

2015 yil 8 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining №286, №287 qarorlari bilan ekologik nazorat sohasidagi normativ-huquqiy xujjatlar hamda jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirishga doir namunaviy nizomlar tasdiqlandi. Xususan, qaror bilan jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirish tartibini hamda jamoatchilik ekologik nazorati sub'ektlari faoliyatining huquqiy asoslarini belgilovchi "Jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi namunaviy nizom" va ekologik nazoratning jamoatchi inspektori faoliyatini tashkil qilish tartibini, uning vazifasi, huquq va majburiyatlarini belgilovchi "Ekologik nazoratning jamoatchi inspektori to'g'risidagi namunaviy nizom"<sup>1</sup> tasdiqlandi. Shunga asosan O'zbekiston ekologik xarakati tomonidan jamoatchilik vakillarining ekologik nazoratni yuritish tartibi ko'rsatib o'tilgan "Jamoatchilik ekologik nazorati" uslubiy qo'llanmasi ishlab chiqildi.

2018 yilning sentyabr oyida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"<sup>2</sup> hamda "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"<sup>3</sup>gi Qonunlari tasdiqlanib, matbuotda e'lon qilindi va kuchga kiridi.

---

<sup>1</sup> <https://www.norma.uz>

<sup>2</sup> [http// www. Lex.uz](http://www.Lex.uz)

<sup>3</sup> [http// www. Lex.uz](http://www.Lex.uz)

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonunini amaliyotga tatbiq etilishi mamlakatimiz hududlarida yovvoyi hayvonlarning xilma-xilligini saqlab qolish va xavfsizligini ta'minlash masalalarni yanada kengroq hal etishga, huquqni qo'llash amaliyoti samaradorligini kuchaytirishga xizmat qilib, yuridik va jismoniy shaxslarning hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi bo'yicha javobgarligini oshirish imkonini beradi.

Yangi tahrirdagi "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonunining tuzulmasi takomillashtirilib, avvalgi Qonun 28 ta moddadan iborat bo'lgan bo'lsa, yangi tahrirdagi Qonun 6 ta bob, 51 ta moddadan iborat tarzda bayon etildi.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni tabiiy o'simlik jamoalarining tarkibiy turlarini va uning genetik fondini tabiiy sharoitlarda saqlab qolish, o'simlik dunyosi ob'ektlari turlarining qisqarishi yoki yo'qolib borishini oldini olish, o'simlik dunyosi ob'ektlaridan samarali va ilmiy asoslangan holda foydalanish va qayta ko'paytirish mazkur sohasidagi qonun talablarini buzganlik uchun yuridik va jismoniy shaxslarning mas'uliyatini oshirish hamda qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ekologik qonun hujjatlarida umumiy tamoyillar bilan bir qatorda, sohadagi munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos jihatlarini aks ettiruvchi boshqa tamoyillar ham mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekistonda milliy ekologik qonunchilikni rivojlantirish bilan bir qatorda atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi xalqaro va davlatlararo shartnomalar, bitimlarga qo'shilish, ularni imzolash borasida tizimli hamda izchil ishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish borasida qator xalqaro bitimlar va konventsiyalar imzolangan. Mazkur



bitim va konventsiyalar bo'yicha olingan majburiyatlarni amalga oshirishda yirik ekologik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Rivojlangan demokratik davlatlarning qonunchiliklari chuqur tahlil etilgan holda ulardagi ilg'or normalar hamda xalqaro shartnomalar, konventsiyalarda belgilangan qoida va normalar milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilinmoqda.

Konstitutsiyaning fundamental normalariga asoslangan holda ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solish jarayoni hozirgi vaqtda atrof muhitni muhofaza qilishning turli jihatlarini hisobga oluvchi xususiyatlari bo'yicha klassifikatsiyalash imkonini beradi. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotga o'tish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy jihati umumiy ishlab chiqarish va tabiatni asrash, uni tashkiliy-huquqiy ta'minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy jihatlarini davlatning yangi ekologik doktrinasi shakllanishi bilan alohida ahamiyatga ega. Yaqqol namoyon bo'luvchi insonparvarlik ustuvorligi yaqqol namoyon bo'lgan ekologik doktrinaning markazida inson, uning hayoti va salomatligi turibdi. Fuqarolarning sog'lom va maqbul atrof muhitga bo'lgan huquqi qonun bilan mustahkamlandi. Tabiatdan foydalanishda ekologik va uning bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning bosqichma-bosqich va izchil hal etilishi izchillik xarakteriga ega bo'ldi.

Shu bilan birga, ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solish nafaqat O'zbekistonning barqaror rivojlanishga o'tishiga bog'liq holda atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha istiqbolli vazifalarni hal etishga, balki mavjud ustuvor ekologik muammolarni, shu jumladan aholi salomatligini muhofaza qilish bilan bog'liq muammolarni ham hal etishga qaratilgan. Masalan, mamlakat ayrim hududlarining ekologik barqarorligi avvalo, boy tabiiy imkoniyatlardan oqilona foydalanish hisobiga ta'minlangan.

Ekologik siyosatni amalga oshirishda konstitutsiyaviy normalarning roli va ahamiyati o'ta muhimdir. Aynan Asosiy qonunimizda davlat organlari va jamoat tashkilotlarining ekologik faoliyatini shakllantirishning asosiy printsiplari mustahkamlangan, shaxsning ekologik huquq va erkinliklari kafolatlangan,

jamiyatimizning ekologik barqaror rivojlanishining ustuvor yo`nalishlari belgilangan.

Hozirgi kunda O`zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning teng huquqli sub'ekti sifatida mamlakat ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida atrof muhit va aholi salomatligini muhofaza qilishga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik siyosatni izchil amalga oshirib kelmoqda.

Shunday qilib, hozirgi bosqichdagi ekologik munosabatlarda umumiy ishlab chiqarishda yangilanishlar (masalan, energiya va resurs tejoychi texnologiyalarni qo'llash) hisobiga ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, jamiyatni yanada demokratlashtirish, iqtisodiy-ekologik sohaga yoshlarni jalb qilish, shuningdek, ekologik ta'limni rivojlantirish va takomillashtirish asosiy vazifa hisoblanadi.

Belgilangan vazifalarni hal etish uchun tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan qonunchilik tizimini yanada rivojlantirish borasidagi ishlar amalga oshirilmoqda.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi Spikeri o`rinbosari B.Alixonov bu o`rinda asosiy e'tiborni tabiiy-resurs va tabiatni asrash bo`yicha normalar o`rtasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etishga, atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasida fuqarolar hamda xo`jalik yurituvchi sub'ekt va davlat manfaatlari o`rtasidagi kelishmovchiliklarni sud orqali hal etish mexanizmlarini kuchaytirishga, tabiatni muhofaza qilishga oid qonunchilikni O`zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalar bo`yicha majburiyatlari doirasida uyg`unlashtirishni ta'minlashga qaratish darkor<sup>1</sup> deb ta`kidlagan edi.

Har bir tabiat ob'ektidan oqilona foydalanish va ularni ekologik muhofaza qilishni ta'minlash Bosh qonunimizda alohida ta'kidlangan. Mazkur huquqiy-me'yoriy hujjatlar mamlakatimizning iqtisodiy, geografik va ekologik xususiyatlari inobatga olingan holda xalqaro andoza va talablarga muvofiq tarzda ishlab chiqilgani bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>1</sup> B.Alixonov. Atrof muhit muhofazasining huquqiy asoslari. <https://www.uza.uz>

Bosh Qomusimizdagi atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog`liq talablarni xalqimiz, yoshlarimiz orasida kengroq tushuntirish, Konstitutsiya talablarga ko`ra qabul qilingan ekologik sohaga oid qonunlar mohiyatini ham kengroq o`rgatish, targ`ib qilish hamda o`z hayotimizda izchil qo`llashimiz ekologiya sohasidagi konstitutsion talablarni mustahkamlash va ekologik xavfsizlikni ta`minlashga yordam beradi.

Ushbu konstitutsiyaviy normalar asosida ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, aholi salomatligini muhofaza qilish bo`yicha 30 dan ziyod qonunlar va 150 yaqin qonun osti hujjatlari qabul qilindi. Jumladan, “Tabiatni muhofaza qilish to`g`risida”gi, “Suv va suvdan foydalanish to`g`risida”gi, “Atmosfera havosini muhofaza qilish to`g`risida”gi, “Ekologik ekspertiza to`g`risida”gi, “Chiqindilar to`g`risida”gi, “Ekologik nazorat to`g`risida”gi, “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to`g`risida”<sup>1</sup>gi va boshqa qonunlar shular jumlasidandir.

Shu bilan birgalikda, ekologik nazorat sohasidagi yaxlit qonun hisoblangan “Ekologik nazorat to`g`risida”gi qonunda ekologik nazoratni amalga oshiruvchi sub'ektlar aniq belgilandi.

Binobarin, O`zbekiston Respublikasining “Ekologik nazorat to`g`risida”gi qonunining asosiy maqsadi ham yuqorida qayd etilgan ekologik muammolarni echimini topish va uning ajralmas katta yo`nalishi bo`lgan jamoatchilik ekologik nazorati institutini tashkil qilish va rivojlantirish, fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlarining ekologik nazoratni amalga oshirish, mamlakat mintaqalaridagi atrof-muhit va aholi sog`lig`i sohasidagi vaziyatni monitoring qilishdagi ishtirokini yanada faollashtirishga hamda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish nafaqat davlat va jamiyat, balki har bir shaxsning vazifasi ekanligini huquqiy jihatdan asoslab berish imkoniyatini yaratishdan iborat.

Mazkur qonunlar huquqni qo`llash amaliyotining ta'sirchanligini oshirishga va qonunchilik hujjatlarida mavjud bo`lgan bo`shliqlarni bartaraf etishga qaratilgan

---

<sup>1</sup> <https://www.norma.uz>

bo`lib, Qonun loyihasi biologik xilma-xillikning ajralmas qismi sifatida yovvoyi hayvonlar va o`simliklar genafondini kompleks ravishda muhofaza qilinishini ta'minlashni nazarda tutadi. Qonun davlat organlarining vakolatlari aniq ko`rsatib qo`yilmoqda va ushbu sohada munosabatlarni tartibga solish yuzasidan ularning vazifalari aniq blgilandi. Sohada fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolarning ishtirok etishiga taalluqli normalar belgilanishi, fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirish keng imkoniyatlar yaratib beradi.

Mamlakatimizda atrof muhitni muhofaza qilish sohasida yaratilgan huquqiy baza, ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo`yicha uzoqni ko`zlab olib borilayotgan siyosat va sohada amalga oshirilayotgan sora-tadbirlar o`z natijalarini bermoqda. Chunonchi, atmosferaga chiqariladigan chiqindilar miqdori qariyb 2,2 marta, ochiq suv havzalariga oqiziladigan oqovalar hajmi deyarli 2,1 barobar kamaydi. Sobiq tuzum davrida qishloq xo`jaligida bepisandlik bilan ishlatilgan turli zaharli kimyoviy preparatlardan foydalanish butkul to`xtatildi. Qishloq xo`jaligida amalga oshirilgan tub islohotlar natijasida faqat so`nggi bir necha yilda 1 million 700 ming gektar sug`oriladigan erlarimizning meliorativ holati yaxshilanib, hosildorlik oshishiga erishildi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Respublikamizda keng jamoatchi ekolog olimlar va mutaxassisilar tashabbusi bilan O`zbekiston ekologik harakati tuzilgani muhim ahamiyat kasb etdi. Bugungi kunda u atrof-muhitni va inson salomatligini muhofaza qilish sohasida faoliyat yuritayotgan yuzlab nodavlat notijorat tashkilotlari sa'y-harakatlarini birlashtirgan. Zero, Konstitutsiyamizda jamoat tashkilotlari faoliyatiga doir asosiy printsiplar mustahkamlab qo`yilgani barcha aholi qatlamlari manfaatlarini aks ettiradigan bunday tashkilotlar rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratdi. Fuqarolarimizning ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy va ekologik faolligi hamda tafakkurini, madaniyatini yanada oshirishni ta'minladi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2017 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida "...2008 yilda tashkil etilgan O`zbekiston Ekologik harakati o`tgan davrda chinakkam siyosiy kuchgv aylandi.

2019 yil yanvar oyida tashkil etilgan O`zbekiston ekologik partiyasi O`zbekiston fuqarolarining bugungi va kelajak avlodlarini qulay sharoitda yashash huquqini himoya qilish, barqaror rivojlanish maqsadlarida iqtisodiyot, ijtimoiy soha, atrof-muhitni muhofaza qilish va fuqarolar salomatligiga yo`naltirilgan tizimli o`zgarishlarga jamiyatning barcha kuchlarini biolashtirishga da'vat qiladi.

Jahonda kechayotgan bugungi ekologik muammo dunyo hamjamiyatini tashvishga solmoqda. Xorijiy davlatlar tajribasiga e'tibor qaratadigan bo`lsak, ekologiya sohasidagi siyosiy partiyalar ko`pchilik davlat va jamiyatlar hayotida muhim o`rin tutishining guvohi bo`lamiz. Ayni paytda 100 ga yaqin mamlakatlarda ekologik partiyalar faoliyat olib bormoqda. Shundan 50 dan ortiq siyosiy partiyalar esa mamlakatning parlamentida, qonunchilik organlarida o`z vakolatli vakillariga ega.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev 2018 yil 28 dekabrda Oliy MAjlisga Murojaatnomasida ekologik xavfsizlik, birinchi navbatda, suv va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish doimo e'tiborimiz markazida turishi zarurligini ta'kidlab, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Orolbo`yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo`yicha ko`p tomonlama sheriklik asosida trust fondining katta yutug`i bo`lganligini alohida e'tirof etdilar.

## **2-BOB. Atrof tabiiy muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilishda xalqaro ekologik tashkilotlarning vazifalari va xalqaro ekologik huquqiy javobgarlik**

### **2.1. Xalqaro ekologik tashkilotlar, konferentsiyalar va jamg`armalar.**

Umuminsoniyat qadriyatlaridan biri bo`lmish Yer kurrasidagi atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va xalqaro tabiiy resurslaridan samarali foydalanishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ygan ekologik tashkilotlar, muassasalar va idoralar o`zlarining faoliyat doirasiga ko`ra universal va regional (mintaqaiy) turlarga ajratiladilar.

Universal, ya'ni faoliyat doirasiga ko`ra turli toifadagi, siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish yo`nalishidagi hamda dunyoning barcha mintaqalardagi davlatlarning ekologik munosabatlariga qaratilgan xalqaro tashkilotlarga BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari kiradi.

BMT 1945 yil 25 oktabrdan buyon faoliyat yurgazib kelayotgan eng nufuzli xalqaro davlatlararo tashkilot bo`lib, o`z oldiga davlatlar o`rtasida tinchlik va xavfsizlikni saqlash, mustahkamlash va o`zaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadini qo`yadi. Atrof muhitni muhofaza qilish masalasi BMTning Nizomidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Bosh Assambleya - BMTning eng yuqori toifadagi organlaridan bo`lib, u xalqaro masalalarga doir hamma dolzarb masalalarni kun tartibiga kirgazadi. Keyingi 20-30-yil mobaynida Bosh Assambleyaning kun tartibiga ko`pincha ekologik masalalar ham kirgazildigan bo`lib qoldi. Bosh Assambleya atrof muhit muhofazasiga doir muammolar yuzasidan unga a'zo davlatlar va Xavfsizlik Kengashiga tegishli tavsiyalar berishga haqlidir. Shuning uchun ham Bosh Assambleya sessiyalarida yirik jamoat, davlat va siyosiy arboblarning ma'ruzasi tinglanadi va unga muvofiq xulosalar qilinadi.

O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48 va 50-sessiyalarida so`zlagan nutqlarida jahon hamjamiyati-ning diqqat e'tiborini Orol dengizining qurib borayotganligiga va uning oqibatida kelib chiqayotgan ekologik inqirozli holatga qaratdi. Natijada 1995 yil 18-20

sentabrda BMT rahbarligida Orol muammolariga bag`ishlangan xalqaro konferensiya o`tkazildi.

BMT ning ekologik tadbirlari, uning asosiy organlari yoki yordamchi idoralari orqali amalga oshiriladi. Bosh Assambleya qoshidagi BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi (EKOSOS) ma'lum bir turdagi aniq vazifalarni bajaradi. Ular toifasiga ekologik masalalar ham kiradi.<sup>1</sup> Ekologik masalalar uning rahbarligi ostidagi qo`mita va komissiyalar vazifasiga yuklatilgan. Ulardan biri Tabiiy boyliklar qo`mitasi-ekologik vazifalarni bajarishda alohida o`rin tutadi. EKOSOS o`zining qo`mita va komissiyalar faoliyatini umumlashtirib Bosh Assambleyaga tavsiyanomalar beradi va konvensiyalar tayyorlaydi, o`z huquq doirasida xalqaro ekologik konferensiyalar chaqiradi, ixtisoslashtirilgan tashkilotlar bilan birgalikda ekologik bitimlar tuzadi.

Aniq bir turdagi ekologik masalalarni BMTning ixtisoslashtirilgan tashkilotlari olib boradi. Ixtisoslashtirilgan tashkilotlar BMT Nizomining 57-moddasiga muvofiq davlatlararo tuzilgan bitimlar orqali tashkil etiladi va o`zlarining ta'sis hujjatlariga binoan bevosita yoki bilvosita ekologik masalalar bilan 63-moddasida ko`rsatib o`tilgan qoidalarga asoslangan holda shug`ullanadilar. BMT qoshida faoliyat ko`rsatayotgan 16 dan ziyod ixtisoslashgan tashkilotidan quyidagilari atrof tabiiy muhit muhofazasiga doir masalalar bilan bevosita shug`ullanadilar.

YUNEP - BMTning atrof muhit bo`yicha dasturi 1972 yil 15 dekabrda tashkil topgan bo`lib, u Afrika qit'asidagi Keniya davlatining poytaxti Nayrobi shahrida bosh shtabi joylashgan. Bosh Assambleya rezolyutsiyasiga muvofiq tashkil etilgan.<sup>2</sup> YUNEP ning uchta bo`limi boshqaruvchilar Kengashi, atrof muhit muhofazasini muvofiqlashtiruvchi Kengash va atrof muhit Jamg`armasi mavjud. Xal qiluvchi masalalar boshqaruvchilar Kengashi tomonidan ko`rib chiqiladi va amalga oshiriladi. Shu kunda uning kun tartibiga 8 yo`nalish bo`yicha ekologik masalalar kirgazilgan:

---

<sup>1</sup> Hakimov N.H., Abirqulov Q.N., Rajabov N., Islomov A.A. Atrof muxit muxofazasi. O`quv qo`llanma. T.: 2010., 122b

<sup>2</sup> O`sa erda.122b

- atrof muhit sanitariyasi, aholi punktlari va kishilar salomatligi;
- yer va suv muhofazasi, saxrolanishni oldini olish;
- okeanlarni muhofaza qilish;
- tabiat, yovvoyi hayvonlar va genetik resurslar muhofazasi;
- energetik muammolar;
- ekologik o`quv va mutaxassislarni tayyorlash;
- tabiiy resurslar savdosi, iqtisodi va texnologiyalar;
- xalqaro va milliy qonunchilikni kodifikatsiyalash va unifikatsiya-lash.

YUNEP va ayrim rivojlangan mamlakatlar yordamida O`zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlashning milliy dasturi va 10 dan ziyod milliy ekologik qonunlar ishlab chiqildi. O`zbekistonda ekologik axborot tizimi YUNEP/GRID - ARENDAL (Norvegiya) loyihasi tayyorlandi.

O`zining ekologik funksiyalari bilan YUNEP ga yaqin bo`lgan BMT tashkilotlaridan biri *YUNESKO*, ya'ni madaniyat, fan va moarif masalalari bo`yicha tashkilot. YUNESKO 1948 yil tashkil topgan va uning Nizomiga muvofiq atrof tabiiy muhit muhofazasiga doir quyidagi masalalarni xal qilishda faoliyat yurgazadi:

- 100dan ortiq mamlakatlar ishtirok etadigan xalqaro ekologik dasturlarga rahbarlik qilish. Shular qatorida O`zbekiston Respublikasida faoliyat yurgazib kelayotgan "Inson va biosfera" (MAB), Tabiat muhofazasiga doir xalqaro maorif dasturi, Xalqaro gidrologik dastur (1995 yildan buyon YUNESKO va Germaniya fan va texnologiyalar vazirligi loyihasiga binoan Orol dengizi atrofidagi yer usti va osti suvlarini baholash va modellashtirish ishlari olib borilmoqda) va hokazo;

- tabiiy obyektlar muhofazasini hisobga olish va tashkil etish. Shunga asosan Yer kurrasining turli burchaklarida biosfera qo`riqxonalari tashkil etilgan. Biosfera qo`riqxonalarini tashkil qilish, ularda atrof muhitga inson faoliyatining ta'sir etish darajasining monitoringini olib borish YUNESKOning universal dasturi asosida amalga oshiriladi. O`zbekiston hududida 1995-yildan buyon Chotqol tog`-o`rmon biosfera qo`riqxonasi yagona biosfera qo`riqxonalar tizimida ishtirok etib kelmoqda. Ammo uning faoliyati YUNESKO dasturining 3 tabaqali tegralash



bo'yicha qo'riqxonani tashkil qilish talabiga xanuzgacha javob bermaydi. Biosfera qo'riqxonasi-qo'riqxonasi, bufer (himoya) va yadro tegralariga ajratilmagan. Qo'riqxonadagi bunday tashkiliy ishlarni amalga oshirish ma'lum darajadagi moliyaviy qullab quvvatlashni taqazo qiladi, albatta.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (*JSST*) eng birinchilar qatori tuzilgan (1946-yil) BMT ning tashkiloti bo'lib, u atrof tabiiy muhitning salbiy o'zgarishi natijasida insonlar salomatligi holati, uni saqlash va mustahkamlashga o'z faoliyatini qaratadi. *JSST* quyidagi ekologik vazifalarni amalga oshiradi:

- atrof tabiiy muhitning sanitar-epidemiologik monitoringini olib borish;
- atrof muhit holatiga qarab kishilarda kasalliklarni kelib chiqishi va tarqalishi bo'yicha ma'lumotlar to'plash va ularni umumlashtirish;
- atrof muhitning sanitar-gigiyenik ekspertizasini olib borish va uning sifatiga baho berish;
- shaharlarda inson salomatligi masalalarini tadqiq qilish;
- rekreatsion tabiiy mintaqalar va ularda aholini xordiq chiqarish chora-tadbirlarini olib borish.

FAO oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti 1945 yilda tuzilgan bo'lib, uning qarorgohi Rim shahrida FAOning ekologik faoliyati xalqaro tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish orqali Yer yuzida kundan kunga ko'payib borayotgan aholini oziq-ovqatga bo'lgan talabini qondirish. FAOning sayl harakati orqali "Dunyo tuproq xaritasi" tuzilgan, "Umumjahon tuproq xartiyasi" qabul qilingan, aholini joylashtirish, oziq-ovqat muammolari, saxrolanishga qarshi kurash, suv resurslarini tejash va ulardan oqilona foydalanish mavzusidagi bir qator xalqaro anjumanlar o'tkazmoqda.

Huqumatlararo dengiz kengashi tashkiloti (*XDK*) 1948 yilda tuzilgan bo'lib, uning qarorgohi London shahrida. *XDK* dunyo okeani va dengiz-larda suv transportidan foydalanishning ekologik xavfsizlik darajasini ta'minlab berishda faol ishtirok etmoqda hamda ularning ifloslanishiga qarshi kurash bo'yicha bir qator konvensiyalar ishlab chiqqan. Bu tashkilot o'z tarkibiga 100dan ziyod

mamlakatlarni birlashtirib, dengiz suvlarini muhofazasiga doir asosiy xalqaro prinsiplar va uning siyosatini olib boradi.

JMT-Jahon meteorologik tashkilot 1947 yilda tuzilgan bo`lib, uning qarorgohi Jeneva shahrida. JMTning maqsadi insonlarning xo`jalik faoliyatini planetamiz iqlimiga ta'sir ko`rsatish darajasini tadqiq qiladi va ularga oid materiallar to`playdi. U atrof muhitning global monitoring tizimi (AMGMT) bo`yicha JMT, JSST, FAO, YUNESKO tashkilotlari bilan hamkorlikda faoliyat yurgazadi. Bu tizimni YUNEP tashkiloti muvofiqlashtirib turadi.<sup>1</sup>

AMGMT harakatdagi 5 dasturni muvofiqlashtirib turadi:

- atmosfera havosi holatining monitoringi;
- ifloslantiruvchi moddalarning uzoq masofalarga ko`chirish;
- inson salomatligi;
- Dunyo okeanlari;
- quruqlikdagi resurslarni tiklash.

O`zbekiston Respublikasi AMGMT dasturi bo`yicha tuzilgan "Iqlimni o`zgarishi to`g`risidagi Konvensiya"ga 1993-yildan boshlab a'zo. Hozirgi kunda ushbu Konvensiyani 59 mamlakat ratifikatsiya qilgan. 1996 yil 12-14-noyabrda Toshkent shahrida o`tkazilgan ushbu Konvensiya bo`yicha seminar yig`ilishida quyidagi masalalar ko`rib chiqildi:

- iqlimni o`zgarishi to`g`risidagi Konvensiya bilan Markaziy Osiyo davlatlari va nodavlat tashkilotlarini tanishtirish;
- Konvensiyaga qo`shilmagan mamlakatlarni jalb qilish;
- Markaziy Osiyo davlatlariga BMT, xususan YUNEP ning yordam ko`rsatish yo`llarini aniqlash;
- Uzboshgidromet va boshqa respublikalar gidrometeorologik xizmatlaridan arid (quruq) iqlim sharoitlarida iqlimga sanoat ta'sirini aniqlash metodikalarini takomillashtirish.

BMTning Tabiiy ofatlarni bartaraf etishga yordam ko`rsatish bo`yicha byurosi - (YUNDRO) turli davlatlar va tashkilotlarga tabiiy ofat natijasida yuzaga

---

<sup>1</sup> A. Nigmatov, G` .Pardayev. Ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish. – T., 2005. 138b

kelgan ekologik inqiroz holatida yordam ko`rsatishni tashkillashtiradi va olib boradi.<sup>1</sup> Byuro Yer yuzasida sodir bo`layotgan tabii ofatlar bo`yicha ma'lumotlar bankiga va har bir salbiy ekologik jarayonni oldini olishning aniq tadbirlarini qo`llash tavsiyanomalariga ega.

1948-yilda tashkil topgan Tabiatni va tabiiy resurslarni muhofazalash xalqaro ittifoqi (TMXI) nodavlat tashkiloti 100dan ziyod davlat va 500 dan ziyod nodavlat tashkilotlarni a'zo qilib olgan. TMXIning asosiy vazifasi unga a'zo bo`lib kirgan mamlakatlar va ularda faoliyat yurgazayot-gan tashkilot, birlashma, uyushma va fuqarolarning ekologik hamkorligini yanada rivojlantirish.

Bu tashkilot quyidagi masalalar bo`yicha faoliyat yurgazadi:

- tabiiy o`simlik va hayvonot dunyosi hamda ekotizimlarni saqlab qolish;
- noyob va yo`qolib borayotgan o`simlik va hayvonot dunyosi turlarni hamda tabiiy yodgorliklarni saqlab qolish;
- qo`riqxonalar, rezervatsiya, milliy tabiiy bog`larni tashkil qilish;
- ekologik o`quvni tashkillashtirish.

TMXI tashabbusi bilan Yer sharida noyob, yo`q bo`lib ketayotgan yoki uni xavfi bor o`simlik va hayvon turlari bo`yicha "Qizil kitob" tuzil-gan va unga doimo qo`shimchalar kiritilib boriladi. "Tabiatni muhofaza qilishning Butunjahon strategiyasi" dasturi ishlab chiqilgan va bunga asosan O`zbekistonda "Biologik xilma-xillikni saqlab qolishning milliy strategiyasi va rejasi" ishlab chiqilgan.

MAGATE - atom energiyasi bo`yicha xalqaro agentlik 1957 yilda, atom energiyasidan harbiy va boshqa xalq xo`jaligi maqsadlarida keng foydalanishni bolash bosqichida tashkil etilgan davlatlararo tashkilot. Agentlikning Nizomiga binoan, uning maqsadi atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanishga erishishga ko`maklashish va uni nazorat qilish MAGATE 34 mamlakatdan iborat boshqaruvchilar Kengashi orqali quyidagi ekologik masalalarni ko`rib chiqadi:

- atom elektrostansiyalarni qurish va ishlatish qoidalarini ishlab chiqish;
- ishlab chiqarish yoki loyihadagi atom elektrostansiyalarni ekologik xavfsizligini ekspertiza qilish;

---

<sup>1</sup> A. Nigmatov, G` .Pardayev. Ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish. – T., 2005. 140b

- atom qurilmalari va materiallarini atrof muhitga ta'sirini baholash;
- radiatsion xavfsizlik me'yorlarini belgilash;
- turli atom qurollarini sinash, unga tayyorlash yoki laboratoriya sinovlarini o'tkazish bo'yicha monitoringni olib borish.

MAGATE talablariga itoat etmaslik BMT Bosh Assambleyasi Xavfsizlik Kengashi qaroriga binoan Iroq va Eronga nisbatan qo'llanilgan yoki qo'llanilayotgan sanksiyalar orqali qarshi kurash chorasini tadbiiq etishi mumkin.

Atrof tabiiy muhitni xalqaro huquqiy muhofaza qilishda mintaqaviy (regional) tashkilotlarning ahamiyati juda katta. Chunki ular har bir mintaqaning konkret ekologik holatini, millatlarning azaliy yaqinligini, ekologik inqirozlarni bir-birlariga juda tezlik bilan ta'sir qilishini, diniy, ma'rifiy va madaniy yaqinlikni inobatga oladi.

Regional tashkilotlarga Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (OBSE), Arab davlatlari ligasi (ADL), Afrika birligi tashkiloti (ABT), Amerika davlatlari tashkiloti (ADT), Janubiy -Sharkiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi (ASEAN), Davlatlararo ekologik Kengash (DEK), Orol dengizi havzasi muammolari bo'yicha kengash va shu kabi mintaqaviy tashkilotlar kiradi.

OBSEga barcha Yevropa mamlakatlari, AQSH, Kanada va MDH a'zolari uning ishida ishtirok etadilar. Ushbu nufuzli regional tashkilot 1972-1975 yillarda Xelsinki shahrida bo'lib o'tgan uch bosqichli uchra-shuvlar va muzokaralar natijasida 1975 yil 1 avgustdan faoliyat yurgaza boshlagan tashkilot. OBSEning maqsadlaridan biri unga a'zo mamlakatlar doirasidagi hududlarda ekologik xavfsizlikni ta'minlash va bu sohada ular o'rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish. Xelsinkida imzolangan Yakuniy hujjatga muvofiq har qanday global masalalar bo'yicha uning qoidalarini bajarishni nazoratlash va muxokama qilish maqsadida uchrashuvlar o'tkazilib turiladi.

1995 yil 10-14 noyabrda Toshkent-Urgench shaharlarida OBSE ning atrof muhitni tiklash bo'yicha seminari bo'lib o'tdi. Bu seminarda BMTning YUNEP, PROON, JSST, MAGATE, MDH, Jahon banki hamda OBSEga a'zo 20 ta mamlakat, jumladan O'zbekiston Respublikasi ham qatnashdi. Bu seminar qarorida

Markaziy Osiyo respublikalarida insonlarni yashash huquqining asosiy elementlaridan biri bo'lgan ekologik xavfsizlikni to'laqonli ta'minlash bo'yicha olib borilishi kerak bo'lgan tadbirlar belgilanib olindi.

Arab davlatlari ligasi (ADL) – 1945-yilda tashkil qilingan bo'lib, 21 arab mamlakatlari va Falastin Ozodlik tashkilotining tabiiy resurslardan (ayniqsa neftdan) kelishgan holda foydalanish va sog'liqni saqlashning ekologik masalalarini ko'rib chiqadi.

Afrika birligi tashkiloti (ABT) – 1963-yilda Addis-Abebada bo'lib o'tgan konferensiyada tashkil etilgan. Ushbu regional tashkilot 50dan ziyod Afrika qit'asidagi mamlakatlarni ijtimoiy, iqtisodiy, ma'rifiy, madaniy, harbiy masalalarda birlashtirib turadi. Ekologik muammolardan hayvonot va o'simlik dunyosining rang-barangligini saqlab qolish bo'yi-cha milliy bog'lar tashkillashtirish va ularni muhofaza qilishning yagona rejasi ishlab chiqilgan.

Amerika davlatlari tashkiloti (ADT) – 1947-yili Rio-de-Janeyroda tashkil topgan bo'lib, 27ta Lotin Amerikasi davlatlari va AQSH kiradi. Uning tarkibida atrof muhit muhofazasiga doir ixtisoslashgan tashkilot mavjud bo'lib, uning asosiy maqsadi Amerika qit'asidagi biologik xilma-xillikni saqlashdir.

Janubiy-Sharkiy Osiyo davlatlari Assotsiatsiyasi (ASEAN) - shu kunda o'zining tarkibida yettita mamlakatni birlashtiradi. Bali shahrida imzolangan Nizomga muvofiq ekologik va sanitar holatni sog'lomlash-tirish bo'yicha hamkorlik qilish yo'llarini topish va ularni amaliy tadbirini joriy qilish uning asosiy ekologik maqsadidir.

Davlatlararo ekologik kengash (DEK) – 1992-yil 8 fevralda mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) rahbarlarining Moskvada bo'lib o'tgan kengashida tasdiqlangan. O'zbekiston uning to'la huquqli a'zosi sifatida Sobiq Ittifoq mamlakatlari bilan atrof muhitni muhofaza qilishni kelishib olingan, muvofiqlashtirilgan sa'y harakatlarini ko'zlab faoliyat yurgazadi.

DEK ka a'zo 10 davlat rahbarlari tomonidan imzolangan Kelishuvga muvofiq (1-modda) uning a'zolari o'z hududlari uchun atrof muhitni muhofaza

qilish dasturlarini ishlab chiqadilar va shu asosda huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy baza yaratadilar hamda o`zaro hamkorlik qiladilar.

1993-yil mart oyida Qozog`istonning Qizilo`rda shahrida bo`lib o`tgan Markaziy Osiyodagi besh davlatning Oliy darajadagi uchrashuvida Orol dengizi muammolari bo`yicha Davlatlararo Kengash va uning Ijroiya qo`mitasi hamda Orolni qutqarish Xalqaro fondi tashkil etildi.

1994-yil Nukus, Tashhovuz 1995 va 1997-yillarda Olmati shaharlarida BMTning ishtirokida bo`lib o`tgan uchrashuvlarda Nukus va Olmati deklaratsiyalari qabul qilindi. Ushbu uchrashuvlarda Markaziy Osiyo davlatlari va xalqaro tashkilotlarning Orol dengizi havzasini barqaror rivojlantirish rejalarini ishlab chiqildi. 1998 yilni ushbu Kengash BMTning shafeligida atrof muhitni muhofaza qilish yili deb e`lon qilishni ham taklif qildi. O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning taklifiga binoan Markaziy Osiyo mintaqasi ekologik va yadroviy xavfsizlik mintaqasi deb e`lon qilindi va bu region yadro qurolidan holi tegra deb e`tirof qilindi.

Atrof tabiiy muhit muhofazasiga doir faoliyat yurgazayotgan tashkilotlardan tashqari doimiy ravishda ekologik yo`nalish bo`yicha faoliyat yurgazib kelayotgan va o`zining ekologik harakatiga ko`pgina davlatlarni jalb qilayotgan xalqaro konferensiyalarning atrof muhit muhofazasidagi ahamiyati juda kattadir. Ular orasida 1972 yil atrof muhit bo`yicha BMTning Stokgolm konferensiyasi, 1975 yil Yevropada xavfsizlik va hamkorlik Kengashi, 1986yil OBSE davlatlari boshliqlarining Vena uchrashuvi, 1992yil BMTning atrof muhit va rivojlanish bo`yicha Rio-de-Janeyro konferensiyasi, 1999 yil YEXHTning Istanbul sammiti alohida o`rinda turadi.

Xalqaro ekologik jamg`armalar (fondlar) - tabiatni muhofaza qilish, atrof muhitni sanitar va gigiyenik holatini yaxshilash va ekologik dasturlarni moliyaviy ta'minlash kabi maqsadlarni o`z oldiga maqsad qilib qo`ygan ekologik jamg`armalar. Faoliyat yurgazish va amaliy harakat qilish ko`lamiga ko`ra ular umumjahon, regional va regionalaro turlarga ajratadilar.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Nigmatov. O`zbekiston Respublikasining ekologiya huquqi.T.: -T.TDYuI 2004.,296b

Umumjahon ekologik jamg`armalarga BMTning YUNEP tashkiloti qoshidagi "Atrof muhit jamg`armasi"ni olsak bo`ladi. Bu jamg`arma o`zining pul mablag`larini BMTga a'zo davlatlarning badal to`lovlaridan, xalqaro tabiiy obyektlardan davlatlarning maxsus foydalanganlik uchun yig`ilgan to`lovlaridan, xalqaro Gaaga sudi qaroriga binoan atrof muhitga yetkazilgan zararlarni xalqaro ekologiya huquqi subyektlari tomonidan iqtisodiy qoplash bo`yicha to`lovlardan, yuridik va jismoniy shaxslardan tushgan xayriyalardan va turli tuman lotereya, shou, sport o`yinlari kabi tadbirlardan tushgan pul yig`imlaridan to`ldirib boradi. Uning mablag`lari faqatgina atrof muhit muhofazasi va sanitar-epidemiologik holatini yaxshilashga yo`naltiriladi. Bu jamg`arma orqali Markaziy Osiyo mamlakatlariga 1994-2000-yillarda bir necha yuzlab millionlik AQSH dollarida Orolni qutqarish bo`yicha moliyaviy va moddiy yordam ko`rsatilgan.

Regionlararo ekologik jamg`armalar turiga Minsk shahrida qarorgohi bo`lgan MDH mamlakatlari orasida tashkil qilingan va Xalqaro Iqtisodiy Kengash (XIK) davlatlarining badal to`lovlari asosida tashkil qilingan "Xalqaro ekologik jamg`arma" kiradi. Uning nizom kapitali 60 mln. rubldan iborat. Yiliga unga a'zo mamlakatlar, jumladan O`zbekiston Respublikasi, yalpi milliy daromadning 0,05% miqdorida pul mablag`larini o`tkazib turadilar. Jamg`arma XIK davlatlarining o`zaro Kelishuviga binoan (1-modda) tuzilgan Milliy ekologik dasturlarini moliyalab turadi.

XIKning keyingi yillarda o`tkazgan Oliy darajadagi uchrashuvlarida xalqaro ekologik jamg`arma tomonidan moliyaviy yordam ko`rsatish kerak bo`lgan quyidagi obyektlar aniqlandi: Chernobil tegrasi, Amudaryo va Dnepr havzalari, Balxash ko`li, Qora, Azov, Kaspiy dengizlari, Orol bo`yi tegrasi.

Markaziy Osiyo mintaqasida juda faol harakat yurgazayotgan regional jamg`arma-xalqaro "Ekosan" jamg`armasi. Nodavlat notijorat Ekosan tashkiloti 1992-yil Toshkent shahrida tuzilgan bo`lib, hozirgi kunda uning 3 milliondan oshiq a'zosi, 34 ta mamlakatda 63 bo`linma va vakolatxonalari bor. Prezidium raisi, falsafa fanlari doktori, professor Shodimetov Yusup Shodimetovich.

Ekosan - grekcha tilidagi "ekos" va "sanos" soʻzlar yigʻindisidan tashkil topgan boʻlib, ekologiya va salomatlik degan ma'noni anglatadi.<sup>1</sup> Uning vazifalari Markaziy Osiyo davlatlarida dolzarb ijtimoiy-ekologik muammolarni tadqiq qilish, ilmiy konsepsiyalarni ishlab chiqish va dastavval bajarilishi kerak boʻlgan muammolarga tadqiqotlarni yoʻnaltirish, ilmiy asoslagan ekologik siyosatni ishlab chiqish, ekologik xavfsizlikni yagona tizimini yaratish, ekologik, oʻquv ong va madaniyatni shakllantirish, yagona region uchun iqtisodiy-ekologik tizimni tuzish borasida davlat, nodavlat va xalqaro tashkilotlar, olimlar va mutaxassislarining sayl harakatlarini birlashtirishdir.

Ekosan qoshida mashhur Rim klubining filiali Toshkent klubi ishlab turibdi. Uning a'zolari dunyoga mashhur olimlar, artistlar, mutaxassislar va davlat arboblari.

1992-yildan buyon 100 dan oshiq dasturlar va loyihalar (DAN -EKOSAN, SES-EKOSAN, Aspera...), konferensiyalar va munozara majlislar (Huquq, ekologiya va salomatlik; Transport, ekologiya va salomatlik; Yoshlarni ekologik oʻqitish muammolari...), xalqaro uchrashuvlar va missiyalar (Novroʻz, ekologiya va salomatlik; Buyuk Temir, tabiat va inson; Orol boʻyi, Fargʻona, Navoiy, Surxandaryo viloyatlariga missiya-lar...) xalqaro hamkorlik va chet el investitsiyalarini jalb qilish (PROON, YUNEP, YUNESKO, ESKATO tashkilotlari; Adenauer va A.Ebert jamgʻarmalari, Oʻrta Osiyo mamlakatlarida akkreditatsiyalangan chet el davlatlarining elchixonalari; MEFA, ABAKO, Aziya treyding kabi kompaniyalar; "EKOLOT" oʻzbek-greetsiya qoʻshma korxonasi...) kabi faoliyatlari hammaga ma'lum.

Markaziy Osiyo davlat rahbarlarini Qiziloʻrda uchrashuvida 1993 yil 4 yanvarda Toshkent shahrida Orolni qutqarish xalqaro jamgʻarmasi tashkil qilindi. Jamgʻarma davlatlararo tashkilot boʻlib, uning mablagʻi ishtirokchilari (Oʻzbekiston, Qirgʻiziston, Qozogʻiston, Tojikiston, Turk-maniston respublikalari)ning yillik badal toʻlovlari orqali tashkil qilinadi. Badal toʻlovi har bir ishtirokchi mamlakat uchun budjetning 0,3 % miqdorida belgilangan. Uning

---

<sup>1</sup> Nigmatov. Oʻzbekiston Respublikasining ekologiya huquqi.T.: -T.TDYuI 2004.,298b



ijroiya qo`mitasi tuzilgan bo`lib, jamg`arma raisi uch yillik muddatga, ketma-ketlik asosda, biron bir davlat Bosh vazirning birinchi o`rinbosari darajasida saylanadi. Jamg`arma prezidenti esa 1 yillik muddatga davlat rahbarlaridan saylanadi. 1997-98 yillarda O`zbekiston birinchi Prezidenti I.Karimov saylandi.

Orolni qutqarish xalqaro jamg`armaning asosiy maqsadi Orol dengizi atrofidagi ekologik inqirozli holatni yumshatish va aholining sanitar-gigiyenik hayot tarzini yaxshilash.

«EKOSAN» ekologiya va salomatlik xalqaro xayriya jamoat fondi nodavlat notijorat tashkiloti sifatida 25 yil davomida o`z faoliyatini samarali olib bormoqda.

Fondning asosiy maqsadi – salbiy ekologik omillarning tabiatga, atrof-muhitga, insonga va umuman ekosistemaga ta`sirini kamaytirish borasida olib borilayotgan ishlarga ko`maklashish, O`zbekiston va butun Markaziy Osiyoda atrof-muhit va ekologik barqaror rivojlanish sohasida mahalliy, mintaqaviy va xalqaro dastur hamda loyihalar ishlab chiqilishi hamda ularning amaliyotga tatbiq etilishida ishtirok etish, aholining ekologik ongi va dunyoqarashini shakllantirish, sog`lom turmush tarzi targ`iboti borasida turli darajadagi keng ko`lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish, muqobil energiya manbalaridan foydalanish, shuningdek, ijtimoiy muhofazaga muhtoj aholi qatlamiga xayriya yordamlarini ko`rsatishdan iborat.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi doirasida, "EKOSAN" xalqaro jamoat fondi o`z faoliyatida, asosiy moliyaviy mablag`i yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy xayriyalari, davlat, nodavlat va xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlar ajratadigan grantlardan iboratligidan kelib chiqib, xomiy va hamkorlarni jalb qilgan holda, o`zining "Maqsadli dastur" ini bosqichma-bosqich amalga oshirdi.

1. Aholi o`rtasida ekologik madaniyatni shakllantirish, sog`lom turmush tarzini targ`ib qilish, atrof tabiiy muhit bilan yg`unlikda munosabatda bo`lish maqsadida, halqaro ekologiya va salomatlik sanalariga bag`ishlab, aholining

ekologik huquqiy bilimlari va madaniyatini oshirishda bir qator davlat, nodavlat tashkilotlar va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda, tadbirlar o'tkazildi. Jumladan:

- "Mehr va muruvvat" jamoat fondi bilan hamkorlikda, 14 yanvar "Vatan himoyachilari kuni"ga bag'ishlab Toshkent shahar harbiy-telekommunikatsiya yo'nalishidagi Akademik litseyda "Ekologik tarbiya yoki atrof-muhitga nisbatan munosabat", Rassomlik kollejida "Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usining shakllanishida ekologik madaniyatning o'rni", 5 iyun "Butunjahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni" munosabati bilan Poytaxtning 91- sonli umum ta'lim maktabida va "Barkamol avlod" bolalar markazida "Ekologiya, yoshlar va salomatlik" mavzusidagi, Toshkent davlat Yuridik universitetida «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishning huquqiy asoslari», Toshkent Pediatriya tibbiyot institutidagi "Ekologiyaning dolzarb masalalari", "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25 yilligiga bag'ishlab Respublika ihtisoslashtirilgan musiqa va san'at akademik litseyida va Toshkent aloqa kasb hunar kollejida "Bizda eng oliy qadriyat - inson va uning manfaatlari" mavzuida uchrashuvlar o'tkazildi. O'quv muassasalarida "Ananalarni tikla - daraxt ek!" ekologik aksiyalari doirasida bir qator daraxt ko'chatlari o'tqazildi hamda (8,7 mln.so'mlik) targ'ibot plakatlari, kitob va o'quv qurollari topshirilib, «Ekologiya burchaklari" tashkil qilindi;

- "EKOSAN" fondi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi hamda O'zbekiston NNT milliy assotsiatsiyasi tomonidan O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonun loyihasi muhokamalarida hamda Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazining Ombudsman faoliyatini takomillashtirish hamda bolalar huquqlarini taminlash borasidagi ishchi guruhlarida ekspert sifatida ish olib bordi. Fridrix Ebert nomidagi fondning O'zbekistondagi vakolatxonasining xalqaro konferensiya, seminarlarida hamda "Nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy g'oyalari va loyihalari yarmarkasi"da o'z ko'rgazmasi bilan ishtirok etdi

- "EKOSAN" fondining 25 yilligiga bag'ishlab, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Mahalla" telekanalida "Siz bilan birga" mavzusida

teleko`rsatuv tayyorlanib, fondning samarali faoliyati yoritib berildi, "Yoshlar" telekanalida "Yoshlar o`rtasida tabiiy va suv resurslarini muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish" mavzusida "Bilasizmi?" targ`ibot teleko`rsatuvi tayyorlanib efirga uzatildi.

2. "Ko`rik-tanlovlar" bandi asosida:

- "EKOSAN" fondi, Toshkent shahar 25- sonli imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktabi hamda 106-sonli zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida "Tabiat bolalar ko`z o`ngida", 23-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabida "Tabiat va biz!" mavzusida Toshkent madaniyat kolleji va Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at akademik litseyida "Tabiatni asraylik!" mavzularda rasm va insho tanlovlari va ko`rgazmalari o`tkazildi. G`olib va sovrindorlar, "EKOSAN" fondining Diplom va sovg`alari bilan taqdirlandilar;

- "EKOSAN" Navoiy viloyati hududiy tashkiloti, aholining hududlarni obodonlashtirish va ko`kalamzorlashtirish, mahallalarda sanitariya-ekologik holatni yaxshilash borasidagi aholi faolligini oshirish maqsadida Navoiy shahri va Karmana tumanlarida yoshlar ishtirokida "Kelajak avlodga - yorqin kelajak qoldiraylik!" mavzusida ekologik aksiya tashkil qilindi.

- Xorazm viloyati "EKOSAN" hududy tashkiloti bir qator hamkorlar ishtirokida "Xorazm madaniyati kunlari" ekofestivalini UrDu talabalari, litsey va maktab o`qituvchilari ishtirokida o`tkazdi. Ekofestivalda yoshlar tomonidan tayyorlangan rasm, foto, badiiy va hunarmandchilik ishlari ko`rgazmalari, ashula va raqs ko`rik - tanlovi uyushtirildi. Ayniqsa, Xorazm viloyati hokimligi hamkorligida viloyatdagi fermer ho`jaliklari o`rtasida o`tkazilgan "Ekologik toza poliz maxsulotlarini yetkazish" mavzusidagi ko`rik - tanlovi o`zining sermazmunligi bilan e`tiborli bo`ldi.

- Surxondaryo viloyati "EKOSAN" hududiy tashkiloti viloyat "Yoshlar ittifoqi" va Ekoharakat bo`limlari hamkorligida Termiz Davlat universitetida "Inson salomatligi buyuk ne`mat" hamda Termiz Arxitektura-qurilish kollejida "Giyohvandlik moddasi va unga qarshi kurashish chora-tadbirlari" mavzularida

ijodiy ishlar ko`rgazmasi, uchrashuv va "Tibbiy ekologik madaniyat" risolasi taqdimoti o`tkazildi.

3. "Sanitariya, gigiyena va tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan hamkorlikdagi pilot loyihalarni amalga oshirish rejalari" bo`yicha:

- "EKOSAN" fondining 25 yilligiga bag`ishlab hamda "2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi yo`nalishlari doirasidagi "Orolbo`yi mintaqasini rivojlantirish" Davlat dasturini amalga oshirishga ko`maklashish maqsadida, «Nuroni» va "EKOSAN" fondlari hamda O'zbekiston sport tashkilotlari fahriylari Kengashi birgalikda "Tabiatni asraylik, odamlar!" shiori ostida EKOMARAFON tashkil qildi. O`zbekiston sport fahriysi Abdijabbor Xolboyev (65 oshli), Toshkent - Guliston - Jizzax - Samarqand - Navoiy - Buxoro -Urganch - Nukus shaharlari yo`nalishida 45 kun 1300 kilometr masofani piyoda bosib o`tdi hamda viloyatlarda aholi, ayniqsa yoshlarni sport bilan shug`ullanishga, sog`lom turmush tarzi bilan yashashga va ekologik muammolarga befarq bo`lmaslikni targ`ib qilish ishlari olib borildi.

- Qoraqalpog`iston Respublikasida 5- iyun "Butunjahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni"ga bag`ishlab, "Ekologiya haftaligi - 2017" o`tkazildi. Unda Nukus shahrining "Turon" stadionida bolalar sport festivali futbol, engil atletika, yugurish va shashka bo`yicha sport musobaqalari o`tkazildi, shuningdek, "Istiqlol" bolalar markazida "Baxtli bolalik" mavzusida "Ekologik konferensiya", "Rangbarang bo`yoqlar dunyosi" mavzusida nogiron bolalar o`rtasida rasmlar ko`rik-tanlovlari tashkil qilindi. G`oliblar "EKOSAN" hududiy tashkilotining Diplom va sovg`alari bilan taqdirlandilar.

- "EKOSAN" Surxondaryo viloyati hududiy tashkiloti "Tabiatni asrang!" shiori ostida Viloyat ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi hamkorligida OAV vakillari ishtirokida Sherobod va Boysun tumanlariga ekomediator tashkillashtirdi. Maqsadi, tumanlardagi ekologik vaziyatni o`rganish va atrof-muhit muhofazasi borasida olib borilayotgan ishlar bilan tanishish hamda OAV orqali aholi habardorligini oshirish va targ`ibot ishlarini olib borish.

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi jamoat fondining "Tabiiy resurslarni muhofaza qilish, o'simlik va hayvonot dunyosini asrab - avaylash, aholi o'rtasida, ayniqsa yoshlarimizning ekologik madaniyati, ongi va dunyoqarashlarini shakllantirishda ko'rgazmali targ'ibot materiallaridan keng foydalanish" Davlat ijtimoiy buyurtmasi (100,0 mln.so'm) doirasida, 350 ta ekologik targ'ibot bannerlari (3x6; 1,5x2; 1,5x3 hajmda Buxoro,Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand, Sirdaryo va Xorazm viloyatlariga o'rnatildi) tayyorlanib, belgilangan joylarga o'rnatildi, shuningdek, loyiha doirasida «Ekologik plakatlar to'plami» - 5000 adadda va "Ekologiya asoslari" – 1000 adadda o'quv qo'llanmasi (kollej va akademik litseylar uchun) tayyorlanib nashr etildi. Loyiha samarali davom etmoqda.

- "EKOSAN" fondi tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi jamoat fondining "Chilonzor tumani "Qatortol" mahalla fuqarolar yig'ini hududida "Bolalar maydonchasi"ni tashkil qilish, hududiy jamoatchilik ishtirokida odonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish orqali ekologik vaziyatni va sanitariya holatini yaxshilashga ko'maklashish" loyihasi (25,0 mln. so'm) amalga oshirildi. Loyiha doirasida belgilangan bir qator xayriya tadbirlari hamda "Bolalar maydonchasi" barpo etish ishlarini samarai amalga oshirdi va Chilonzor tuman hokimligi, "Nuroni" fondi faollari, mahalla ahli va OAV ishtirokida tantanali topshirish tadbiri tashkil qilindi.

4. "Aholining, ijtimoiy, ekologik, tibbiy, sanitariya va gigiyena sohasi sharoitlarini yaxshilash hamda ichimliklar suvi tanqis bo'lgan xududlarda yashovchi aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash" Dasturini izchillik bilan amalga oshirib borib:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida, Kegeyli tumani "Juzumbag'" MFY hududiga 900 metr ichimlik suvi quvuri tortilib, ta'mirlash tiklash ishlarini olib bordi, Shumanay tumanining "Taza bazar", "Monshakli" va "Navro'z" ko'chalarida 1100 metrga ichimlik suvi tarmoqlari tortilib yangi quduqlar o'rnatildi. Qonliko'l tumanining "Do'stlik" MFY hududidagi "Parahatshilik", "Birlik", "Nukus" hamda "Do'stlik" ko'chalarida 788

metrli suv tarmog`i qurilishi va ta'mirlash ishlari olib borildi. Shuningdek, Surhondaryo viloyati Uzun tumani "Uzunqishloq" mahalla aholisini toza ichimlik suvi bilan ta`minlash maqsadida 2ta suv ichimlik suvi inshootlari, suv quduqlariga nasos o`rnatish va suv minorasini ta'mirlash ishlari aholining olqishiga sazovor bo`ldi.

- Orolbo`yi hududidagi tibbiyot muassasalarining aholiga bir me`yorda sifatli tibbiy xizmat ko`rsatishiga ko`mak berish maqsadida Qonliko`l tumanidagi "Bo`ston" MFY "Qulamet jirao`" qishloq vrachlik punktiga 288,8 metr, Chimboy tumani "Qizil o`zak" MFY hududidagi 53 –sonli qishloq oilaviy poliklinikasiga 350 metr ichimlik suvi quvurlari yangidan o`tkazib berish natijasida aholiga tibbiy yordam ko`rsatish sifati yaxshilandi. Mazkur suv ta`minoti loyihalari doirasida jami 3427 metr suv tarmog`i tortilib, 10 000 ortiq aholining ichimlik suvi ta`minoti (jami 413,2 mln.so`mlik) yaxshilandi;

- Muqobil energiya manbalaridan unumli foydalanish maqsadida, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani "Sarabiy" oilaviy poliklinikasiga hamda Xorazm viloyati Hazorasp tumani 1-sonli "Orom" davlat maxsus maktabgacha ta`lim muassasasiga quyosh texnologiyalariga asoslangan 2 ta-1000 Vt. fotoelektrik stantsiyalar 1 ta 200 l. quyosh suv isitish kollektorlari (jami 60,0 mln. so`m.) o`rnatildi:

- Aholi turarjoy ob`ektlarining ijtimoiy, ekologik, sanitariya va gigiyena sharoitlarini yaxshilash maqsadida, Qoraqalpog`iston Respublikasi Beruniy tumanidagi "Navro`z" va "Bunyodkor" MFY ko`p qavatli uylari hududiga 6 va 8 o`rinli namunali xojatxona qurib berildi, shuningdek, "Bunyodkor" MFY hududida 2ta bolalar maydonchasi qurilishi (jami 108,2 mln. so`mlik) amalga oshirildi, hamda hududlar obodonlashtirildi, sanitar holati yaxshilandi.

5. "Aholi va ijtimoiy ob`ektlarga xayriya yordamlarini ko`rsatish" bo`yicha, "EKOSAN - mahallada" dasturi doirasida, "Navro`z" umumxalq bayrami va 9 May "Xotira va qadrlash kun"ga bag`ishlangan xayriya tadbirlari doirasida Qoraqalpog`iston Respublikasi, Farg`ona va Xorazm viloyatlari hamda Toshkent shahrida ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamiga, nogiron va keksalarga 20 ta

nogironlar aravalari, 180 ta hasa, 40 ta qo`ltiqtayoq hamda 20 nafar urush va mehnat fahriylariga shaxsiy gigiyena vositalari to`plami "Nuroni" fondi faollari hamkorligida topshirildi. Yangi 2018 - yil bayrami arafasida O'zbekiston ko`zi ojizlar jamiyatining Yakkasaroy bo`limining 50 nafar a`zolariga shaxsiy gigiyena vositalari (jami 8,9 mln.so`mlik) to`plami xayriya sifatida topshirildi;

Fond faoliyati TV, radio orqali yoritib borildi, "Qishloq haoti", "Toshkent oqshomi", "O`zbekistonda sog`liqni saqlash", "Ekomuloqot", "Jamiyat", "Nuroni", "Hurriyat", "Ma'rifat", "O'zbekiston ovozi", "O'zbekiston ovozi" - "Golos Uzbekistana", "Nurly jo`l", "Yoshlar ovozi", "Vesti Karakalpakstana", "Mening mulkim», «Uzbekistan Tudey" gazetalarida, "Yagona oilada" va "Sihat - salomatlik" jurnallarida 50 ga yaqin maqolalar chop etilgani e`tiborli.

"EKOSAN" fondi, 2018 yil - "Faol tadbirkorlik, innovatsion g`oyalar va texnologiyalarni qo`llab-quvvatlash yili" Davlat dasturi bilan hamohang holda, o`z faoliyatini samarali amalga oshirdi.<sup>1</sup>

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturi va O`zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo`mitasi tomonidan O`zbekistonning baland tog` ekotizimlarida bioxilma-xillikni muhofaza qilishga qaratilgan yangi loyiha ishlab chiqildi.

O`zbekiston BMTning xalqaro bioxilma-xillikni asrash, yovvoyi hayvonlarning ko`chib yuruvchi turlarini himoya qilish, suvda suzuvchi qushlarning yashash joyi bo`lgan suvli-botqoqli hududlarni muhofazalash, yo`qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi hayvon va o`simlik turlari bilan xalqaro savdo qilish yuzasidan qabul qilingan konventsionalarga qo`shilgan va ular asosida zimmaga olingan xalqaro majburiyatlarni o`z vaqtida bajarish maqsadida milliy strategiya va harakat rejalari amalga oshirilmoqda.

O`zbekiston BMTning xalqaro bioxilma-xillikni asrash, yovvoyi hayvonlarning ko`chib yuruvchi turlarini himoya qilish, suvda suzuvchi qushlarning yashash joyi bo`lgan suvli-botqoqli hududlarni muhofazalash, yo`qolib

---

<sup>1</sup> «EKOSAN» axborot xizmati ma`lumotlari

ketish xavfi ostida turgan yovvoyi hayvon va o`simlik turlari bilan xalqaro savdo qilish yuzasidan qabul qilingan konventsiyalarga qo`shilgan va ular asosida zimmaga olingan xalqaro majburiyatlarni o`z vaqtida bajarish maqsadida milliy strategiya va harakat rejalari amalga oshirilmoqda.

«Global ahamiyatga ega bo`lgan bioxilma-xillikni muhofaza qilish maqsadida muhim tog`li hududlarda o`rmonlardan va tabiat resurslaridan barqaror foydalanish va boshqarish» deb nomlangan yangi loyiha ham bioxilma-xillikka boy yurtimizning baland tog` ekotizimlarida tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishga ko`maklashish maqsadida ishlab chiqildi.

Loyiha Global ekologik jamg`arma taqdim etgan grant mablag`lari evaziga hamda boshqa qator vazirlik va hamkor tashkilotlar ko`magida 2017-2022 yillarda amalga oshiriladi.<sup>1</sup> Loyiha doirasidagi chora-tadbirlar G`arbiy Tyan-Shan va Pomir-Oloyning baland tog` hududlarida Toshkent, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatining ma'muriy chegaralari ichida amalga oshiriladi. Baland tog` ekotizimlarining asosiy vakili muhofazaga muhtoj bo`lgan qor qoplari hisoblanadi. U Markaziy Osiyoning baland tog` hududlarida yashovchi, mushuksimonlar oilasiga mansub yirik yirtqich hayvondir. Qor qoplari xalqaro "Qizil kitob"ga muhofazaga muhtoj tur, O`zbekistonning "Qizil kitobi"ga esa 2009 yilda tor arealda yashovchi kamayib borayotgan va butunlay yo`qolib ketish xavfi ostida qolgan tur sifatida kiritilgan. Mazkur loyiha bunday muammolarning oldini olish, aholining ekologik madaniyatini yanada yuksaltirish, biologik xilma-xillikni asrashga yo`naltirilganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo`mitasi Prezidentimizning 2018 yil 18 maydagi "Maishiy chiqindilar bilan bog`liq ishlarni amalga oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida"<sup>2</sup>gi qarori qabul qilindi.

Respublika hududlarida mavjud bo`lgan barcha chiqindilarni yig`ish maydonchalari xatlovdan o`tkazilib, to`plangan ma'lumotlar asosida tegishli

---

<sup>1</sup> Go`zal Sattorova, <https://www.uza.uz>

<sup>2</sup> <https://www.norma.uz>



jadvallar shakllantirilgan. Qo`mitaning rasmiy veb-saytida yaratilgan maxsus portal ma'lumotlar bazasiga shahar va tumanlarga biriktirilgan 408 nafar inspektorga tegishli ma'lumotlar kiritilgan. Shuningdek, fuqarolar tomonidan jamoatchilik nazoratini olib borish hamda hududlarda aniqlangan noqonuniy chiqindixonalar to`g`risida xabar berish yoki shikoyatlar, foto va video materiallarni yuborishga mo`ljallangan "Chiqindi nazorati" boti ishlab chiqilib, portal ma'lumotlar bazasi bilan bog`langan.

Agar mustaqillik yillarida O`zbekiston bo`yicha 1 million 220 ming gektarga yaqin o`rmonzor yaratilgan bo`lsa, shundan 400 ming gektardan ortig`i aynan Orolbo`yi hududida barpo etilgan. 2019 yilda yana 500 ming gektar o`rmonzor barpo etiladi.

2019 yil 8 yanvar kuni mamlakatimiz siyosiy ijtimoiy hayotida muhim voqea O`zbekiston tarixida birinchi marta ekologik barqarorlikni ta'minlash yo`lida yangi siyosiy kuch, O`zbekiston Ekologik partiyasi ta'sisi etildi.

- Er kurrasida sodir bo`layotgan hozirgi anomal tabiiy o`zgarishlar, jiddiy ekalogik inqiroz, uning natijasida vujudga kelayotgan murakkab geosiyosiy vaziyat dunyo hamjamiyatini har qachongidan ham ko`ra birlashishga, hamkorlik va hamjihatlikka chorlamoqda.

Atrof-muhitga haddan tashqari ko`p chiqarilayotgan zararli moddalar shu paytgacha abadiy muzliklar deya e'tirof etib kelingan Arktika yoki Grenlandiya muzliklarining asta-sekin erib borishiga va dunyo okeanlari sathining sezilarli ko`tarilishiga sabab bo`layapti. Iqlimshunos olimlar, ekolog ekspertlar buni insoniyat boshiga muqarrar halokat solishidan tashvishlanib, bong o`rmoqda.

Shuni ta'kidlash joizki, hozirda sayyoramiz ekalogik barqarorlik chegarasiga kelib qoldi. Gap shundaki, bugungi ekologik tanazzul dunyoning qaysi bir qit'asida yoki mintaqasida vujudga kelmasin, bu butun insoniyatning taqdiriga ta'sir ko`rsatmoqda.

Juda ko`p bora ta'kidlangan Orol muammosi ham bugungi kunda ko`plab mamlakatlarning, ular aholisining taqdiriga ta'sir o`tkazayapti. Yaqin o`tmishda jahondagi yopiq dengizlar o`rtasida kattaligi jihatdan to`rtinchi o`rinda bo`lgan

Orol dengizi o`rnida Qizilqum va Qoraqum sahrolari o`rtasida maydoni 5,5 million gektarga teng bo`lgan yangi “Orolqum” sahrosi paydo bo`ldi. Orol dengizi fojiasi dunyodagi eng yirik ekologik fojealardan biri bo`lib, nafaqat, O`zbekiston, balki mintaqadagi barcha davlatlar uchun qator ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy va gumanitar muammolarni keltirib chiqardi. Qo`rigan dengiz tubidan ko`tariladigan qum va tuz bo`ronlari borgan sari avj olmoqda. Hududdan har yili 100 million tonna qum va tuz zarralari tarqalmoqda.

Orol fojeasi mintaqadagi iqlim sharoitini og`irlashtirib, yoz davrida quruqlik va jaziramani kuchaytirdi, sovuq va qaqshatqich qishlarni uzaytirib yubordi. Mutaxassislarni bashoratiga ko`ra, 2035-2050 yillarga kelib mintaqadagi havo darajasi hozirgi ko`rsatgichlarga nisbatan yana 1,5-3 darajaga o`sishi mumkin. Undan tashqari, Orol fojiasining tahdidli ta'siri butun dunyoda kuzatilmoqda. Xalqaro ekspertlarni ta'kidlashicha, Orol mintaqasining zaharli tuzlari Antarktida sohillarida, Grelandiya muzliklarida, Norvegiya o`rmonlarida va Er kurrasining ko`plab boshqa joylarida topilgan. Orolbo`yi mintaqasida yuzaga kelgan muammolar jahon hamjamiyatini tashvishga solayotgani bejiz emas, albatta.

E'tirof etish joizki, O`zbekiston tabiatdan oqilona foydalanish siyosatini izchillik bilan olib bormoqda. Er va suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish, qishloq xhjaligini intensivlashtirish bo`yicha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Chunonchi, ko`rilgan chora-tadbirlar natijasida yillik suv iste'molini 14 milliard kub.metr ga qiqartirishga, qishloq xo`jaligida bir gektarga bo`lgan suv sarfining solishtirma hajmini va ikki baravardan ko`proq kamaytirishga, sug`oriladigan erlar maydonining yarmidan ortig`ining meliorativ holatini yaxshilashga erishiladi.

Ekologik muammolarni barataraf etishga kuo`maklashish, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish maqsadida mamlakatimizda ilk bora O`zbekiston Ekologik partiyasi vujudga keldi.

Orol ekologik fojiasi oqibatlarining Orolbo`yi aholisi va atrof muhiti uchun salbiy ta'sirini yumshatish, shuningdek mamlakatning boshqa ekologik noqulay hududlarida tabiiy muhitni sog`lomlashtirishga erishish yangi partiyaning asosiy dasturiy maqsad va vazifalaridandir.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2017 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida "...2008 yilda tashkil etilgan O`zbekiston Ekologik harakati o`tgan davrda chinakkam siyosiy kuchga aylandi.

O`zbekiston ekologik partiyasi O`zbekiston fuqarolarining bugungi va kelajak avlodlarini qulay sharoitda yashash huquqini himoya qilish, barqaror rivojlanish maqsadlarida iqtisodiyot, ijtimoiy soha, atrof-muhitni muhofaza qilish va fuqarolar salomatligiga yo`naltirilgan tizimli o`zgarishlarga jamiyatning barcha kuchlarini biolashtirishga da'vat qiladi.

Jahonda kechayotgan bugungi ekologik muammo dunyo hamjamiyatini tashvishga solmoqda. Xorijiy davlatlar tajribasiga e'tibor qaratadigan bo`lsak, ekologiya sohasidagi siyosiy partiyalar ko`pchilik davlat va jamiyatlar hayotida muhim o`rin tutishining guvohi bo`lamiz. Ayni paytda 100 ga yaqin mamlakatlarda ekologik partiyalar faoliyat olib bormoqda. Shundan 50 dan ortiq siyosiy partiyalar esa mamlakatning parlamentida, qonunchilik organlarida o`z vakolatli vakillariga ega.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev 2018 yil 28 dekabrda Oliy MAjlisga Murojaatnomasida ekologik xavfsizlik, birinchi navbatda, suv va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish doimo e'tiborimiz markazida turishi zarurligini ta'kidlab, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Orolbo`yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo`yicha ko`p tomonlama sheriklik asosida trust fondining katta yutug`i<sup>1</sup> bo`lganligini alohida e'tirof etdilar.

## **2.2. Xalqaro ekologik-huquqiy javobgarlik**

Xalqaro ekologik-huquqiy javobgarlik xalqaro huquq subyektlari (davlatlar, xalqaro tashkilotlar va transmilliy korporatsiyalar)ning atrof muhitga yetkazadigan zararini oldini olish yoki yetkazilgan zararni qoplash yuzasidan kelib chiqadigan xalqaro-huquqiy me'yorlar va ularga monand ravishdagi huquqiy munosabatlarning iqtisodiy huquqiy kompleksi.

---

<sup>1</sup> Sh.Mirziyoev. 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi.28.12.2018. <https://www.president.uz>

Xalqaro huquq subyektlarining ekologik zararli yoki xilof harakatlari, ularning o`z iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy, texnologik, rekratsion va shu kabi xo`jalik faoliyatlari natijasida kelib chiqadigan atrof muhit muhofazasiga zid bo`lgan harakat yoki harakatsizliklari.

Agarda davlatlar, xalqaro tashkilotlar va transmilliy korporatsiyalar faoliyatlari BMT va uning ixtisoslashgan tashkilotlari yoki regional ekologik tashkilotlar tomonidan belgilangan atrof tabiiy muhit holatining huquqiy me'yorlar doirasida bo`lsa, bu holat ushbu subyektlarning Yer tabiati oldidagi iqtisodiy-ekologik javobgarligini paydo qiladi. Buni ularning tabiat va qolaversa kelajak avlodlar oldidagi moddiy va ma'naviy javobgarligi deyish mumkin. Bunday javobgarlikni V.V. Petrov (1995, 1997), A.N. Nigmatov (1999) iqtisodiy-ekologik javobgarlik deb nomlashgan.<sup>1</sup>

Iqtisodiy-ekologik javobgarlik ona tabiatga yetkazilgan zararni qoplash yuzasidan amalga oshiriladigan iqtisodiy tadbir bo`lib, uning ishtirokchi subyektlari umumjahon, regional yoki subregional turdagi ekologik jamg`armalarga muntazam ravishda to`lanadigan badal to`lovlari orqali undirib olinadi. Lekin hech qanday hollarda va hech qanday sabab oqibatlarida bunday ekologik badal to`lovlari umumiy iqtisodiy yoki ijtimoiy ko`rinishdagi jamg`armalar orqali amalga oshirilmasligi kerak. Chunki umumiy "qozonga" tushgan osh "ekologik cho`michga" ilinmay qolishi mumkin.

O`zbekiston Respublikasi, biz yuqorida aytib o`tganimizdek iqtisodiy-ekologik javobgarlik bo`yicha badal to`lovlarini BMT qoshidagi xalqaro ekologik jamg`armasiga, MDHning xalqaro ekologik jamg`armasiga hamda Markaziy Osiyo davlatlarining Orolni qutqarish jamg`armasiga ma'lum bir belgilangan foiz asosida o`tkazib turadi va bu bilan atrof tabiiy muhitga yetkazilgan me'yoriy zararni qoplab boradi.

Ayrim kosmik fazoni o`zlashtirishga oid dasturlarni bajaruvchi davlatlar, birlashmalar va xalqaro tashkilotlar 1972-yilda qabul qilingan "Kosmik kemalar

---

<sup>1</sup> Ekologiya huquqi. Darslik/ J.T.Xolmuminov, N.B.Shoimov, O.A.Kamolov, O.J.Xolmuminov. -T.: O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014.-2486.

orqali zarar yetkazish Konvensiyasi"ning 2-moddasiga binoan tabiatga yetkazilgan zararni qoplashlari kerak.

Ekologik-huquqiy javobgarlik - xalqaro ekologik obyektlardan universal, regional va ikki davlat o`rtasida belgilangan xalqaro huquqiy me'yorlardan oshirib foydalanish yoki ularni buzish orqali atrof muhitga yetkazilgan zararni qoplash orqali kelib chiqadigan va xalqaro-huquq subyektlariga qo`llaniladigan noqulay moddiy va siyosiy sharoitlarni majburiy kechinmasi yoki ularni yuridik javobgarlikka tortilishi.

Yuridik javobgarlikning noqulay moddiy kechinmasi yoki moddiy javobgarligi ekologik ziyon ko`rgan davlatlarga yoki davlatlar yuridiksiyasida bo`lmagan ekologik obyektlarga (xalqaro ekologik tashkilotlar orqali) yetkazilgan zararni moliyaviy (reparatsiya), natural holda (restutitsiya) yoki almashtirish (substitutsiya) orqali qoplashga tushunamiz.

Xalqaro ekologik-huquqiy javobgarlikning moddiy qoplanishi "restoratsiya" <sup>1</sup>usulini, ya'ni ma'lum bir tabiiy obyekt yoki moddiy obyekt huquqbuzar subyekt tomonidan to`liq tiklab berilishini, qo`llash ham mumkin. Masalan, tuproq unumdorligini, suv tozaligini yoki eroziya oqibatida buzilgan uyni xalqaro subyekt tomonidan tiklab berish.

Milliy ekologik javobgarlikdan xalqaro ekologik javobgarlikning asosiy farqi ularda qo`llaniladigan sanksiyalardadir. Xalqaro huquq subyektlarini ozodlikdan mahrum qilish, kam ish haqi to`lanadigan darajaga tushirib qo`yish, mol-mulkini musodara qilish, ma'muriy jazo turlariga tortish imkoniyati yo`qligi jazo sanksiyalarini boshqacha turlarini qo`llashni taqazo qiladi.

Xalqaro ekologik-huquqiy javobgarlikda aybdorlarga nisbatan noqulay siyosiy kechinmalarni qo`llash sanksiyasi mavjud. Bunday jazo turi xalqaro tashkilotlar yoki ularning sudlov organlarining qarorlariga muvofiq amalga oshiriladi. Natijada aybdor deb topilgan xalqaro subyekt xalqaro tashkilotlar safidan chiqariladi va ularga nisbatan turli ko`rinishdagi yoki shakldagi iqtisodiy,

---

<sup>1</sup> Shoimov N.B. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlikni kuchaytirishning ba'zi jihatlari// O`zbekiston Respublikasi IIB Akademiyasining Axborotnomasi.2012/№ 2 , 17b

siyosiy, ijtimoiy, madaniy, harbiy, ekologik "boykot" e'lon qilinadi. Bunga yaqqol misol qilib BMTning Iroq respublikasiga nisbatan bir necha yildan beri qo'llayotgan iqtisodiy "boykot"ini olsak bo'ladi. Rossiya Federatsiyasiga qarashli 2000-yil fevral oyida "Volga-Don" mazut tashuvchi daryo kemasi Bosfor bo'g'ozida Iroq xom-ashyosini olib ketayotganda ushlendi va yoqilg'i konfiskatsiya qilindi hamda kema qarashli kompaniyaga katta jarima solindi. Iroq Respublikasi urushni targ'ib qilish va yadro qurolini yaratish orqali tabiatga va inson hayotiga tajovuz solayotgan harakatlari uchun xalqaro Gaaga sudi qarori bilan siyosiy sanksiyaga tortildi. Ammo yurisprudensiyada qo'llaniladigan asosiy prinsiplardan biri "Huquqbuzarliklar uchun jazoning muqarrorligi" xalqaro-ekologik javobgarlikda hanuzgacha to'lig'icha qo'llanilmayapti desak bo'ladi.

Eng nufuzli xalqaro sudlov organi - BMT ning xalqaro Gaaga sudi 1945-yil BMT bilan bir vaqtda faoliyat yuruza boshladi. Uning a'zolari Bosh Assambleya tomonidan 5-yil muddatga saylanadilar. BMT Nizomining 99-moddasiga binoan Gaaga sudi Xavfsizlik Kengashiga xalqaro ekologik masalalarga doir va ekologik xavfsizlikni saqlash bo'yicha har qanday masalalarni xal qilish doir takliflar bilan chiqishga huquqlidir.<sup>1</sup>

Lekin, xalqaro ekspertlarning ma'lumotlariga ko'ra, Yer kurrasida davlatlar yoki transkontinental kompaniyalar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarni bor yo'g'i 7-8% xalqaro sudlov organlari tomonidan ko'rib chiqilmoqda. Vaholanki, ularning hammasi ham yetarlicha javob-garlikka tortilmayaptilar, tabiatga yetkazilgan zararni qoplash esa uzoq muddatga cho'zilib ketmoqda.

Gaaga sudidan tashqari bir qancha regional va subregional toifadagi xalqaro sudlar mavjud bo'lib, ular 200 dan ziyod ikki va ko'p tomonlama imzolangan shartnoma va kelishuvlarga binoan xalqaro ekologik javobgarlik sanksiyalarini ishlatsalar bo'ladi. Bunda davlatlar o'zlarining milliy qonun me'yorlarini yoki xalqaro tashkilotlarning Nizomlarini "ro'kach" qilib ko'rsatishlari aslo inobatga

---

<sup>1</sup> Ekalogiya huquqi. Darslik// J.T.Xolmuminov, N.B.Shoimov, O.A.Kamolov, O.J.Xolmuminov.-T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014.-250b.

olinmasligi kerak. Chunki, xalqaro ekologik huquq prinsipiga binoan, atrof tabiatni muhofaza qilishda xalqaro huquqiy-me'yoriy normalar milliy yoki ixtisoslashgan ichki normalarga nisbatan ustuvorlikka egadir. Undan tashqari xalqaro shartnoma va kelishuvlarda ekologik-huquqiy javobgarlik umuman inobatga olinmagan, agar olingan bo'lsa ham davlatlarning u yoki bu tabiiy obyektlarni muhofazasiga qaratilgan xolos. Shuning uchun ham bunday javobgarlik me'yorlari birlamchi me'yorlar toifasiga kirib, huquqbuzarlarni yuridik javobgarlikka tortish uchun yetarli asos bo'la olmaydi.

MDH va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida tuzilgan bir qator xalqaro-huquqiy hujjatlarda yuridik javobgarlikni qo'llash turi aniq bir tabiiy maydon yoki makon bo'yicha me'yori ko'rsatib o'tilmagan. Hanuzgacha ekologik-huquqiy manba sifatida ular orasida javobgarlik Konvensiyalari imzolangan. Moddiy va siyosiy sanksiyalar turi, miqdori va ularni undirish yoki ishlatish mexanizmi yo'q. Ularni amalga oshiruvchi nazorat, inspeksiya va sudlov organlarini tuzish shu kunning kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalardan biridir.

Xulosa qilib aytganda insonlarning yagona yashash makoni bo'lgan Yer sharining ekologik xavfsizligini ta'minlash biron bir davlat, tashkilot yoki uyushmalarning sayl-harakatlaridan boshlanadigan, lekin butun dunyo hamjamiyatining birgalikdagi izchil ekologik siyosatni olib borishiga iqtisodiy va huquqiy mexanizmni ishlab chiqishiga, ijtimoiy va madaniy muhitni yarata olishiga bog'liq bo'lgan masalalar toifasiga kiradigan dolzarb muammodir.

## X U L O S A

Insonlarning yagona yashash makoni boʻlgan Yer sharining ekologik xavfsizligini ta'minlash biron bir davlat, tashkilot yoki uyushmalarning sayl-harakatlaridan boshlanadigan, lekin butun dunyo hamjamiyatining birgalikdagi izchil ekologik siyosatni olib borishiga iqtisodiy va huquqiy mexanizmni ishlab chiqishiga, ijtimoiy va madaniy muhitni yarata olishiga bogʻliq boʻlgan masalalar toifasiga kiradigan dolzarb muammodir.

Hozirgi kunda Oʻzbekiston Respublikasi xalqaro huquqning teng huquqli sub'ekti sifatida mamlakat ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida atrof muhit va aholi salomatligini muhofaza qilishga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik siyosatni izchil amalga oshirib kelmoqda.

Shunday qilib, hozirgi bosqichdagi ekologik munosabatlarda umumiy ishlab chiqarishda yangilanishlar (masalan, energiya va resurs tejoychi texnologiyalarni qoʻllash) hisobiga ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, jamiyatni yanada demokratlashtirish, iqtisodiy-ekologik sohaga yoshlarni jalb qilish, shuningdek, ekologik ta'limni rivojlantirish va takomillashtirish asosiy vazifa qilib belgilash lozim.

Tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan qonunchilik tizimini yanada rivojlantirish borasidagi ishlarni izchil davom ettirish lozim. Bu oʻrinda asosiy e'tiborni tabiiy-resurs va tabiatni asrash boʻyicha normalar oʻrtasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etishga, atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasida fuqarolar hamda xoʻjalik yurituvchi sub'ekt va davlat manfaatlarini oʻrtasidagi kelishmovchiliklarni sud orqali hal etish mexanizmlarini kuchaytirishga, tabiatni muhofaza qilishga oid qonunchilikni Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalar boʻyicha majburiyatlari doirasida uygʻunlashtirishni ta'minlashga qaratish kerak.

Xulosa qilib aytganda atrof-muhit muhofazasi va ekologik vaziyatni yaxshilash barcha davlatlar, xalqaro hamjamiyatlar, nohukumat uyushmalar bilan hamkorlikni keng yoʻlga qoʻyish orqaligina barqaror iqtisodiy rivojlanish, tabiiy



resurslardan samarali foydalanish, ekologik tenglikni bartaraf etish va atrof-muhitni muhofaza qilish imkoniyatiga ega bo`lamiz

#### TAKLIFLAR

1.Aholi o`rtasida ekologik madaniyatni shakllantirish, sog`lom turmush tarzini targ`ib qilish;

2.Sanitariya, gigiyena va tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan hamkorlikdagi pilot loyihalarni amalga oshirish lozim;

3.Aholining, ijtimoiy, ekologik, tibbiy, sanitariya va gigiyena sohasi sharoitlarini yaxshilash hamda ichimliklar suvi tanqis bo`lgan xududlarda yashovchi aholini toza ichimlik suvi bilan ta`minlash” Dasturini izchillik bilan amalga oshirsh;

4.Aholi ekologik xavfsizligini ta`minlash bo`yicha Aholi va ijtimoiy ob`ektlarga xayriya yordamlarini ko`rsatilisini yo`lga qo`yish lozim.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

### **I. Normativ-huquqiy hujjatlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. T, O'zbekiston, 2017
2. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonuni. Xalq so'zi. 2017 yil 15 sentyabr.
3. "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 apreldagi PF-5024-son farmoni. 287 modda. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami №17. 2017 yil 1 may.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga sharhlar. T., 2001.
5. Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida gi qonun. O'zbekiston Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1993 yil, №6, 255-b.
6. "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi qonun. O'zbekiston Oliy Majlisining Axborotnomasi . 1997 yil №2, 52-b.
7. "Davlat tasarufidan chiqarish va xususiylashtirish io'g'risidagi qonun, O'zbekiston respublikasining yangi qonunlari ., 1993 yil №5.
8. "Yer osti boyliklari to'g'risidagi qonun. O'zbekiston Oliy Majlisining Axborotnomasi . 2003 yil №2.
9. "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish tug'risida" gi qonun. O'zbekiston Oliy Majlisining Axborotnomasi .. 1998 yil №1. 14-b.
10. O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi" T.1.T., 1983 y. T.2.T., 1994 y. T.2000y.
11. O'zbekiston Respublikasi "O'rmon tug'risidagi qonun. O'zbekiston Oliy Majlisining Axborotnomasi , 1999y, №5. 122-b
12. "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" gi qonun O'zbekiston Oliy Majlisining Axborotnomasi .. 1998 y. №1. 12-b.
13. "Suv va suvdan foydalanish tug'risida" gi qonuni. O'zbekiston Oliy Majlisining Axborotnomasi ., 1993y. №5. 221-b.

- 14.”Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonuni. O‘zbekiston Oliy Majlisining Axborotnomasi . ,1993 y.№1.38-b.
- 15.O‘zbekiston Respublikasining “Yer kodeksi”. O‘zbekiston Oliy Majlisining Axborotnomasi . ,1993 y.№5-6.82-b.
- 16.O‘zbekiston Respublikasi “Havo kodeksi”.o‘zbekistonning yangi qonunlari 9-son,1993 .
- 17.Tangbergenov S.Iqtisod va ekalogi Y.Ekalogiya krizis sharoitida hududiy ijtimoiy rivojlanish yo‘llari masalalari.Nukus, -2004.-B.11-13
- 18.Markaziy Osiyo mamlakatlarning Olma-ota deklaratsiyasi.O‘zbekiston ekologik xabarnomasi.1997.
- 19.2017-2021 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekistoni rivojlantirishning “Harakatlar strategiyasi” PF-4749 2017-yil 7-fevral.
20. O‘zbekiston respublikasi ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizomni nizomi. 2018-yil 3-oktabrdagi PQ-3956-son qarori

## **II. Asosiy adabiyotlar**

- 1.Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O‘zbekiston, 2017. -488 b.
2. Mirziyoev SH.M Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: O‘zbekiston, 2017.-104 b.
- 3.Mirziyoev SH. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.T.: “O‘zbekiston” NMIU. 2017. -48 b.
- 4.Mirziyoev.Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.Toshkent.O‘zbekiston, 2017.1-jild,596-b.
- 5.Mirziyoev Sh.. 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28.12.2018. [https:// www.president.uz](https://www.president.uz)
- 6.Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari..- T.: «O‘zbekiston», 1997, 112-b.
- 7.Karimov I. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

- Qonunchilik palatasi va Senatining q o`shma majlisidagi ma'ruzasi. –Toshkent «O`zbekiston», 2010. –B.29.
- 8.Ekologiya huquqi.-T.: Yozuvchi uyushmasi, 2001
- 9.Usmonov M.B. (Hammualiflikda). Qishloq xo`jalik huquqi.-T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2000.-23 b.t
- 10.Usmonov M.B. (Hammualiflikda). Ekologiya huquqi.Darslik.-T.: Yozuvchi, 2001.-20,0 b.t.
- 11.Hakimov N.H., Abirqulov Q.N., Rajabov N., Islomov A.A. Atrof muxit muxofazasi. O`quv qo`llanma. T.: 2010.
- 12.Fayzullayev // Ekologiya huquqi.Umumiy qism.O`quv-uslubiy qo`llanma.-T.: TDYUI, 2004.-32
- 13.A. Нигматов. Ўзбекистон Республикасининг экология хуқуқи.Т.:-Т.ТДЮИ 2004
14. Ekologiya huquqi. Darslik/^ J.T.Xolmuminov, N.B.Shoimov,O.A.Kamolov, O.J.Xolmuminov.-T.: O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014.-2576.
- 15.O`zbekiston Respublikasi qizil kitobi.I-jild.Hayvonot olami.-T., 1998.
16. O`zbekiston Respublikasi qizil kitobi.II-jild.Hayvonot olami.-T., 2003.
- 17.Международное право в документах. -М.:Юриздат, 1982.
- 18.Spravochnik ekolog-a-eksperta. – T.: Goskompriroda, 1997
19. B.Alixonov. Atrof muhit muhofazasining huquqiy asoslari. <https://www.uza.uz>
20. Nurillo Nasriev Xalqaro ozon qatlamini muhofaza qilish. 15.09.2017 <https://www.uza.uz>
21. Shoimov N.B. Xalqaro ekologik xavfsizlikni ta'minlashda O`zbekistonning thtgan o`rni///Xalqaro huquqiy munosaatlarda O`zbekistonning thtgan o`rni va roli: Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari.-T.,2011.22 aprel
- 22.Shoimov N.B. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlikni kuchaytirishning ba]zi jihatlari// O`zbekiston Respublikasi IIB Akademiyasining Axborotnomasi.2012/№ 2
23. A. Nigmatov, G`Pardayev. Ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish. – T., 2005.

### III. Internet saytlari

1. [http// www. Lex.uz](http://www.Lex.uz)
2. [http// www.norma.uz](http://www.norma.uz)
3. [http// www.gov.uz](http://www.gov.uz)
4. [http// www.lawbook/ru](http://www.lawbook/ru)
5. [http// www.lawlibrary/ru](http://www.lawlibrary/ru)
6. [https//www.uza.uz](https://www.uza.uz)